Abstract: This article addresses special aspects of the armed conflicts in modern military activities of local wars taking place in the world and the region. A comparative analysis is given as an example within the framework of the topic.

Keywords: military-political situation, battle, armed conflict, tactical situational gunfire.

KIRISH

Mamlakatning milliy manfaatlaridan, jahondagi va mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyatdan, harbiy sohada milliy xavfsizlikka bo'lgan tahdidlar darajasidan, zamonaviy harbiy mojarolarning xususiyatlaridan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasida ehtimoliy harbiy to'qnashuvlarga qarshi kurashishga, lokal va mintaqaviy urushlarni paydo bo'lishida qurollangan to'qnashuvlarga qarshi kurashish talabi ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ayni paytda butun dunyoda, jumladan, yon-atrofimizda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib bormoqda, ayrim hududlarda qurolli to'qnashuvlar hamon davom etmoqda. Ana shunday keskin vaziyatdan kelib chiqqan holda, mavjud tahdidlarga qarshi munosib zarba berishga tayyor bo'lishimiz, O'zbekistonning tinch va barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida Qurolli Kuchlarimizni yanada isloh qilish, uning jangovar



tayyorgarligi va qobiliyatini yuksaltirish bo'yicha kelgusida amalga oshiradigan ishlarimizni izchil davom ettirishimiz zarur" [1].

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYASI

Mintaqaviy va lokal urushlar-qurollangan to'qnashuvlarda terroristik harakatlardan keng foydalanish, strategik muhim obyekt va hududlarni qo'lga olishga yoki yo'q qilishga intilish, transport; energetik, axborot kommunikatsiyalarini buzish va to'sish bilan xarakterlanayotgan harbiy harakatlardir. Zamonaviy umumqo'shin jangining asosiy xususiyatlari (turli manyovrlar va shiddat bilan) vaziyatning tez va keskin o'zgarishi, jang fronti sarhadlarining chuqurligi bir chizig'da o'zgarmasligi, jang yuritish usullarining turli tumanligi, shaxsiy tarkibning jismonan va axloqiy – ruhiy jihatdan kuchli zo'riqishi, jonli kuchlar va qurol-yarog' bo'yicha katta talofat ko'rilishidan iborat [2].

XXI asrning boshlarida davom etayotgan harbiy majorolarni tendensiyasini o'ziga xosligi bu harbiy xarakterlar san'atida keng masshtabda olib boriladigan umumharbiy taktik hatti-harakatlar o'z ifodasini to'liq namoyon qilmayotganligi, bunda jang maydonining turli xil ko'rinishda ekanligi bilan xarakterlanadi. Zamonaviy jangda quuruqlikdagi Qurolli Kuchlar, Ikkinchi Jahon urushi davrida bo'lgani kabi alohida taktik birliklarning kombinatsiyasiga ega bo'lgan bo'linmalar, polklar, brigadalardan iborat bo'lmasdan yuqori mobil taktik guruhlardan tashkil topmoqda [3].

Ayrim xorijlik mualliflar urushning mohiyatini qarama-qarshi nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlashmoqda, Xusucan, "Past darajali nizolar: Zamonaviy dunyodagi urushlar modeli" kitobi muallifi amerikalik tadqiqotchi L.Tompson fikricha, barcha zamonaviy nizolar noyobdir va ular turli ssenariylarga asosan rivojlanadi, degan xulosaga kelgan. Ularda iqtisodiy, siyosiy, diniy, etnik, kriminal bahonalar tutashib ketadi [4].

Tahlikali, keskin o'zgaruvchan qurolli mojaralarda, to'qnashuvlarda va lokal urushlarda jang olib borish an'anaviy (klassik) jangovar harakatlardan tubdan farq qilishi mobil guruhlar tarkibiga ega bo'lgan kichik-kichik guruh va bo'linmalar tarkibida harakatlanish va bu bilan yuqori manyovrga, tezkorlikka, nostandart vaziyatlarda ratsional qaror qabul qilgan holda jang olib borish tendensiyasi bilan xarakterlanadi. Bular urushning yangi asosiy fenomenlarning qisqacha mazmuni hamda hususiyatlaridir.



MUXOKAMA VA NATIJALAR

“Xarbiy mojarolar”lar tushunchasi keng masshtabli, mintaqaviy, mahalliy urushlar va qurolli to‘qnashuvlarni o‘z ichiga olgan barcha qurolli qarama-qarshiliklardan iborat bo‘lgan harbiy harakatlardir.

Harbiy soha tadqiqotchilari K.Sivkov va P.S.Kazarinlar zamonaviy harbiy mojarolarning o‘ziga xos jihatlarni ana’anviy harbiy usullardan farqli ekanligini Ikkinchi Jahon urushidagi ana’anviy xarakterga ega bo‘lgan harbiy harakatlar bilan qiyosiy tahlil qilib, yoritib berganlar [5].

Shahar sharoitidagi noan’anviy jangovar harakatlarning xronologiyasini kuzatadigan bo‘lsak, 2006 yildagi Livan urushidagi “Xizbulloh” diniy siyosiy tashkilotining harakatlarida yashirin pozitsiyalar va yer osti tonnellaridan foydalangan holda shuningdek, Livanning aholi punktlarida manyovrlar amalga oshirib Isroil armiyasi kuchlarini neytralizatsiya holatiga keltirishga erishgan. Ushbu taktika natijasida Isroil armiyasi Livan bilan Isroil chegarasidagi aholi yashash punktida ikki hafta davomida “Xizbulloh” tashkiloti pozitsiyalariga nisbatan samarasiz hujumlar olib borgan. Isroil armiyasi zamonaviy xavo kuchlarini qo‘llaganligi sababli “Xizbulloh” a‘zolarini tor-mor qilishga erishgan[5]. Shuningdek, Yaqin sharq davlatlarida faoliyat yuritayotgan “Islom davlati”ning muntazam kuchlarga qarshi olib borayotgan terroristik harakatlarini ham baholaydigan bo‘lsak, ularning harakati ham aynan noan’anviy qurolli mojarolar sinfiga kiradi. “Iroq va Shom islom davlati” deb nom olgan terroristik tashkilot hozirda nafaqat yaqin Sharq davlatlariga, qolaversa, O‘rta Osiyo davlatlariga ham xavf solayotgani hech kimga sir emas. 2011 yilning mart oylarida “Arab bahori” nomi bilan boshlangan qo‘zg‘olonlar yaqin Sharq davlatlarida ommaviy tartibsizliklar, qurolli mojarolar va qo‘zg‘olonlarni yuzaga keltirdi. 2014 yil aprel oyida Suriya davlati Qurolli Kuchlariga qarshi noqonuniy qurollangan qo‘zg‘olonchilar faoliyati keskin darajada jadallashdi. Suriya Arab Respublikasi Qurolli kuchlari tomonidan “Islom davlati” noqonuniy qurollangan tashkilotiga qarshi olib borilayotgan tadbirlar deyarli shahar sharoitida amalga oshirilmoqda.

Ushbu kuchlarga qarshi o‘tkazilayotgan jangovar harakatlar o‘rganilganda, ular bilan kurash olib borish vaqtida qoidaga ko‘ra, dushman bilan to‘qnash kelgunga qadar, ya’ni masofali o‘t ochish jangi orqali yo‘q qilish amalga oshirilgan, bunda aviatsiya va artilleriya kuchlaridan foydalanilgan, bu harakatdan so‘ng yakuniy xarbiy harakatlarni quruqlikdagi qo‘shinlar davom ettirayotganligini kuzatish mumkin [6].



Rossiyalik mutaxassislar Suriya davlatida olib borayotgan xarbiy harakatlardan shunday hulosaga kelishdigi ISHID jangarilarning qat'iyatligi bilan jang olib borishligini ta'kidlashmoqda. Dushmanning tirik kuchlarini 50 foizini yo'qotishlariga qaramasdan, o'z pozitsiyasining tashlab ketmasligi, qabul qilingan qarorlariga amalga oshirish uchun oxirgacha kurashishligi kuzatilgan. ISHID pozitsiyalarni qo'lga olish uchun dushmanning 90 foizgacha obyektlariga o't ochib shikastlanishni amalga oshirishgan. Jang davomida "ISHID" otryadlari o'z pozitsiyalarini tashlab ketish holatlari bo'lmagan. Jangarilar tayanch punktlarini ushlab turishni so'ngi damgacha olib borishgan [7].

Yuqorida keltirilgan, harbiy majarolarning tahlili shundan dalolat bermoqdaki, aksariyati harbiy harakatlar aholi yashash hududlarida sodir etilayotganligi, bu esa o'z navbatida dushman bilan yaqin masofada jang olib borishda asosiy qurol sifatida o'qotar qurollari xanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmaganligidan dalolat beradi. Qurolli kuchlarning jangovar tayyorgarlik tizimlarida o'q otish tayyorgarligi fani asosiy fanlaridan biri bo'lib xisoblanishi, shaxsiy tarkibning jangovar malakasini oshirishning tarkibiy qismiligidan qolayotganligi, uning maqsadi shaxsiy tarkibga qurol-aslahalarni hamisha jangga tayyor holatda saqlashi, zamonaviy turli jang sharoitlarida dushmanning kuch va vositalariga talofat yetkazish uchun samarali o'q otishdan iborat bo'lib qolmoqda.

Suriyada shahar sharoitlaridagi jangovar harakatlarning o'ziga hosligi o'rganib, urbanlashgan hududlar ustidan nazorat o'rnatilishning muhim shartlaridan biri zamonaviy urushlar davomida muvaffaqiyatga erishishning o'ziga xosliklarini namoyon qilmoqda.

Birinchidan, jangovar to'qnashuvning aniq bir chizig'inig yo'qligi va uning vertikal bo'yicha cho'zilganligi (inshootlarning yer osti kommunikatsiyalaridan yuqori qavatlarigacha) va chuqurligi shaharda jangovar harakatlar olib borishning asosiy o'ziga xosliklari.

Ikkinchidan, kuch va vositalar bilan manyovrlarni amalga oshirishdagi zirhli texnikalardan foydalanishdagi to'siqlar soni ko'pligi sababli paydo bo'layotgan qiyinchiliklar.

Uchinchidan, jangarilarning jang olib borish hududlar to'g'risida to'liq ma'lumotga ega ekanligi ustunligi.

Turtinchidan, o'ziga xoslik jangovar harakatlar turarjoy kvartallarida olib borilayotganligi.

Shubhasiz, sezilarli miqdorda tinch aholi qo'shinlar harakati uchun jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi va jangovar harakatlar zonasidan ularni olib chiqishni



ta'minlash, joylashtirishni tashkil etish, ular orasidan jangarilarni aniqlash bo'yicha tadbirlarni o'tkazish uchun qo'shimcha kuch va vositalarni jalb qilishni talab qiladi. Bundan tashqari, shaharda fuqaro aholi mavjudligi eng kamida qiyinchilik tug'diradi, ba'zi hollarda esa artelleriya va aviatsiyani qo'llashga to'liq imkon bermaydi. Shahar sharoitidagi harakatlarda harbiy kuchdan minimal foydalanib aholi yashash punktini qo'lga olish bo'yicha vazifani bajarish usullini topish eng asosiy muammo hisoblanadi. [8]

Yuqori qayd etilgan xarbiy majorolar shuni ko'rsatdiki, turli sharoitlarda noan'anaviy urushlarni olib borish harakatlarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari bu jang olib borishda yuqori maneverti namoyon qilgan holda o'qotar qurollaridan tezkorlik bilan hujumga o'tish yoki hujumni qaytarish bilan dushmanning tirik kuch va vositalarini yo'q qilish bilan samarali jang olib borish usullaridan foydalanish kabilardir.

Qisqa va o'rta masofalarda jang olib borish xatti-harakatlarining samaradorligini oshirish maqsadida o'q otish tayyorgarligi va mahsus taktika tayyorgarligi fanlarining bilim va ko'nikmalarini uyg'unlashtirish orqali taktik vaziyatli o'q otish mashg'ulotlarini shakllantirish bu bilan harbiy xizmatchilarning yakka tartibda yoki guruh tarkibida o'q otish usullarining ko'nikmalarini yuqori darajada shakllantirishni o'rganish, ushbu o'quv jarayonida o'q otish tayyorgarligi fanidan olib boriladigan o'quv mashg'ulotlarni esa real jangovar holatga yaqinlashtirilgan holda tashkillashtirilishi lozim. Taktik vaziyatli o'q otish jang maydonida bo'lib o'tadigan turli harbiy vaziyatlarning maqsadidan kelib chiqib quyidagi miqyoslarda olib borilishi mumkin: Qisqa masofada jang olib borish masofasi qisqa masofa 5 metrdan 20 metrga qadar, yaqin masofadan 20 metrdan 100 metrga qadar va o'rta masofadan esa 100 metrdan 500 metrga qadar olib borilishi mumkin.

Ushbu jang olib borish masofalari bo'linmalarining qurollangan qurolyarog'larining jangovar hususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Ushbu o'q otish harakatlarini jadallashtirish maqsadida turli o'zgaruvchan harbiy vaziyatlarni o'zida namoyon etgan nishonlar foni yaratiladi, o'quv jangovar harakatlarni amalga oshirish borasida jangovar taktik modellar yaratiladi. Ushbu taktik vaziyatli o'q otish modelini shakllantirish uchun harbiy poligonlarning maxsus uchastkalarida turli taktik vaziyatlardan iborat bo'lgan modellar yaratiladi. Taktik vaziyatli o'q otish mashqlarini bajarish jarayonida mashg'ulot rahbari nostandart harbiy vaziyatlarni inobatga olgan holda o'quv mashqlarining talablariga o'zgartirish kiritilishiga ruxsat beradi. Tahlikali vaziyatlarda jangchi o'z xayoti uchun xavfli bo'lgan muhitda



haraktlanishi, mudofaadan qarshi hujumga o'tish bu bilan shartli dushman nishonlariga qarab samarali jang olib borish mashqlarini bajaradi.

XULOSA

Xulosa, o'q otish mashg'ulotlari o'tkazilganda harbiy xizmatchilarning ma'naviy, psixologik va jismoniy kuchlarining maksimal safarbarligini shakllantirish orqali jangchining jangovar irodasi mustahkamlanadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 10 yanvar kungi Xavfsizlik kengashi yig'ilishidagi nutki.
2. Dolimov Sh. Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug'ati. –T:, 68 bet.
3. https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/sovremennaya-voynaeto-borba-za-informatsionnoe-prevoskhodst/?sphrase_id=49182406;
4. “Традиционнач” война стала паритетом- "https://www.rol.ru/news /misc/newsreg
5. П.С.Казарин О соотношении Понятий “Война и вооруженный конфликт” Константина Сивков HYPERLINK "https://vvo.ric.mil.ru/Stati /item/15 5699"/, Как изменилась военная стратегия со времен Второй мировой войны <https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/sovremennaya-voyna-etoborba-za-informatsionnoe-prevoskhodst/>.
6. Александр Хомутов <https://arsenal-otechestva.ru/article/1406-obshche-vojskov-yeformirovaniya-v-sovremennykh-voennykh-konfliktakh>.
6. Xalqaro terroristik tashkilotlar jangari guruhlarining shimoliy afrika va yaqin sharq davlatlarida olib borayotgan jangovar harakatlari. <http://library.ziyonet.uz> › uzc› book› download
7. Выступление командующего ЦВО ВС РФ генерал-лейтенант Лапина А.П в Академия ВС РУ перед ППС и слушателями факультета ВБ и ОГ. 14.02.18 й 8. Самаров.Р. Zamonaviy urush va qurolli to'qnashuvlar tendensiyasi: harbiy san'atning rivojlanish konteksida (монография).- Тошкент 2021.303 б.



GILAMDO'ZLIK AZALDAN QOLGAN AN'ANA

Azimova G.A.

Buxoro muxandislik-texnologiya instituti doktoranti

Ilmiy rahbar dots. Qazoqov F.F.

Annotatsiya: Maqolada O'rta Osiyo hududida, ayniqsa qadimgi O'zbekiston hududida gilamdo'zliyning rivojlanishi, O'rta asrlarda gilamdo'zlik uch yo'nalishda — ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvador qabilalarda, o'troq (qishloq yoki shahar) aholi orasida, saroy ustaxonalarida rivojlanganligi, O'rta Osiyo hududida gilamdo'zlikning aynan qadimgi O'zbekiston hududida keng rivojlanganligi yoritib derilgan.

Kalit so'zlar: Qadimdan chorvachilik, O'simlik (paxta, zig'ir, jut) tolasi, jun (qo'y, echki, tuya juni) dangina, Tog'li Oltoy, Ganja, Shirvon, Boku, Naxichevan, Kavkaz gilamlari, "Turunj", "Shoh Abbos", "Bog'", "Ov" san'at asarlari.

Qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanadigan ko'chmanchi qabilalar orasida keng tarqalgan gilam to'qish kasbi, badiiy hunarmandlik sohasidir. O'simlik (paxta, zig'ir, jut) tolasi, jun (qo'y, echki, tuya juni) dangina tayyorlangan. Gilam to'qish uchun qir qilgan junlar yuvilib tozalanadi, temir taroqlarda taraladi, taralgan junlardan ip yigiriladi. Iplar turli tabiiy bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Shuning uchun gilam ranglari o'zgarmaydi va o'zining sifatini yo'qotmaydi. Hozirda sun'iy tolalardan ham to'qilmoqda. Gilam yer bag'irlab yotiq (gorizontal) va tik (vertikal) o'rnatilgan dastgohlarda to'qiladi. Gilam rivojlangan joylarda to'quv dastgoqlari ancha mukammallashtirilgan va bir necha to'quvchi yonma-yon o'tirib birdaniga to'qiyveradigan keng o'q (g'altak)li xillari yaratilgan. Gilamdo'z usta naqsh mujassamotini yodaki yoki nusxa asosida to'qiydi. To'qilish usuliga ko'ra patli va patsiz gilam turlari farqlanadi.

Sharq naqshlari va milliy bezaklar - o'zbek gilamdo'zlik estetikasi.

Gilam to'qish uchun ishlatiladigan ip qo'ylarning eng yaxshi bahorgi junlari bo'lgan. Yigirish uchun faqat eng uzun va ingichka tolalardan foydalanilgan. Axir, gilamning qiymati har doim uning zichligi bilan aniqlangan. Eng zo'r iplardan to'qilgan eng yaxshi gilamlar bir detsimetr kvadratda necha mingta tugundan iborat bo'ladi.

Qo'lda gilam to'qish O'rta Osiyoda, ayniqsa Turkmanistonda keng rivojlangan. Qo'lda gilam to'qish nihoyatda sermashaqqat ish, to'quvchidan qunt, did va mahorat



talab qiladi. Patli gilamlarni to‘qish ayniqsa murakkab. Qo‘lda to‘qilgan gilam pati, naqsh mujassamoti asos ipiga rangli iplardan tugib bandlar hosil qilib yaratiladi, tugun uchi matoning yuza tomoniga chiqarib tekis qirqiladi, har bir qatordan so‘ng arqoq ipi o‘tkazib maxsus temir taroqqa urib avvalgisiga mahkamlanadi. Tayyor gilam maxsus kimyoviy moddalar yordamida yuviladi. Gilamlar turli hajmlarda tayyorlanadi. 20-asr 30-yillaridan keyingina pat bog‘laydigan maxsus dastgohi korxonalar paydo bo‘ldi (jumladan Andijondagi "Mehnat guli" arteli). Sharq gilamdo‘zlikda ishlab chiqarilgan joyi, naqsh mujassamoti, sifati (qalinligi, patining uzunqisqaligi), rang yechimi bilan bir-biridan farqlanadigan eron, turk, turkman va ozarbayjon gilamlari qadimdan mashhur.

Gilando‘zlikning paydo bo‘lgan vaqtini aniq aytish qiyin, chunki jun chidamsiz bo‘lib, qadimiy gilamlar saqlanmagan. Eng qadimiy gilam mil. av. 6—5-asrlarga oid bo‘lib, Tog‘li Oltoydan topilgan, abadiy muzloqda bo‘lgani uchun yaxshi saqlangan. Olimlarning taxminiga ko‘ra, u Axomaniylar davri forslari yoki O‘rta Osiyo qabilalari orasida tayyorlangan (hajmi 1,8x2 m; naqsh mujassamoti: handasiy shakllar nilufar gullar bilan bezatilgan, keng hoshiyalarida otliv chavandozlar, xoldor bug‘ular, grifonlar tasviri bor).

Qadimda va ilk o‘rta asrlar gilamdo‘zlikga oid ma‘lumotlar yozma manbalarda saklangan. Saljuqiylar davrida gilamlar ("ko‘nya", topilgan joy nomidan) ko‘plab tayyorlangan va Misr, Hindiston, Xitoyga chiqarilgan.

O‘rta asrlarda gilamdo‘zlik uch yo‘nalishda — ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvador qabilalarda, o‘troq (qishloq yoki shahar) aholi orasida, saroy ustaxonalarida rivojlangan. Tadqiqotchilar Eron, Zakavkazye, O‘rta Osiyo gilamlarini alohida ko‘rsatib o‘tganlar.

16-asrdan saroy (eron) gilamlari yaxshi saqlangan. Bu gilamlar ("Turunj", "Shoh Abbos", "Bog‘", "Ov" va boshqalar) amaliy san‘atning nodir namunalari. Ular miniatyura ustalari — musavvirlarning chizgilari asosida to‘qilgan. G. Turkiya, Boburiylar davrida Hindistonda ("Mo‘g‘ul", "Agra" va b. gilamlar), Misr, Suriya, Kavkaz ortida taraqqiy etdi.

18—19-asrlarda Garbiy Zakavkazye va O‘rta Osiyoda saroylarda emas, balki xalq orasida keng tarqaldi. Asosiy markazlari Kazax, Ganja, Shirvon, Boku, Naxichevan bo‘lgan Zakavkazye gilamlari rang-barang mujassamoti, ijro usuli va badiiy jihati bilan, Turkmaniston gilamlari ("Salor", "Sariq", "Taka yovmut", "Bashir" va boshqalar) qizil rangining teranligi, handasiy gullari va o‘ta pishiqligi bilan ajralib turadi.



G'arbiy Yevropa G.da 16-asrdan flamand, fransuz, nemis shpalerlari alohida o'rin tutgan. 17—18-asrlardan patli gilamlar (1624-yilda Parijda asos solingan Savoneri manufakturasida) ishlab chiqarila boshlangan, keyinroq Angliya va Ispaniyada ham patli gilamlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. 19-asrdan gilamlar fabrikalarda ishlab chiqarila boshlagach, uning sifati keskin pasayib ketdi. 20-asr o'rtalaridan badiiy hunarmandlikda Gilamdo'zlikni qayta tiklashga urinishlar samarali bo'ldi. Polsha, Bolgariya, Ruminiya, Yugoslaviya patli gilamlari bilan bir katorada patsiz gilamlar ham tayyorlana boshladi. Gilamdo'zlik O'rta Osiyo, xususan O'zbekistan hududida juda qadimdan rivojlangan (Xorazmdagi arxeologik qazishlar paytida milloddan avvalgi 1-ming yillikka mansub gilam namunasi topilgan). Gilamdo'zlik bilan asosan ayollar shug'ullangan, naqsh (gul)lar (islimiy, garih, hayvon shakllari, turli narsalar tasviri, urug' tamg'asi va boshqalar)ni esa xotirada saqlashgan. Bezaklarida yo'lbars va tuya izlari, olma guli, uzum zangi, tuya bo'yni, qalqon, o'simliklar ifodalangan, ayniqsa xayvon shoxi tasviri keng tarqalgan. Mujassamotining berkligi, markaziy maydonning naqshli hoshiya bilan o'ralganligi (yo'l-yo'l naqshlar bundan mustasno) O'rta Osiyo gilamlari uchun xos bo'lgan, naqshining aniqligi, go'zal bo'lishi va ranglarining uyg'unligi ularning badiiy qimmatini oshirgan. Asosiy rang kizil rang va uning 2-3 tuyey bo'lib, ko'k, qora, oq, sariq ranglar ikkinchi darajali bo'lgan. Ranglarning mohirona ishlatilishi bilan ifodali tasvir hosil qilingan. Bir naqsh qismlarini turli ko'rinishlarda bo'yalishi bilan rang-baranglikka va jozibadorlikka erishilgan.

Andijon, Samarqand gilamlari, qoraqalpoqlar to'qigan o'tov jihozlari badiiy jihatdan mohirona ishlangan. Andijon gilamlarining pati qisqa, qalin va mayin bo'lgan. Samarqandning rangdor uzun patli julxirs ("ayiq teri") gilami o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

20-asrga kelib gilamdo'zlik o'ziga xos tarzda taraqqiy etdi, gilamdo'zlik markazlarida gilam to'qish rivojlandi, artellar tuzilib, ularga xalq ustalari jalb qilindi (mas, Andijon viloyati Oyim qishlog'idagi gilam to'qish arteli), ularda bir xil naqshli, yuqori sifatli gilamlar, shuningdek, mayda ro'zg'or buyumlari to'qildi. 30-yillarning 2-yarmidan mavzuli va tasvirli gilam namunalarini yaratishga urinishlar bo'ldi. Gilamdo'zlik markazlarida Kavkaz gilamlari, an'anaviy turkman gilamlari xilidagi birmuncha soddalashtirilgan gilamlar ishlab chiqarildi, faqat Samarqand gilami (julxirs) o'zining an'anaviy uslubini, rangdorligini saqlab qoldi. 40—50-yillarda Gilamdo'zlik markazlari (Samarqand, Kitob, 1946; Xiva, Andijon, Termiz, 1947; Shahrisabz, 1949; Xo'jayli, 1954) tashkil etildi, mahalliy ustalar shogirdlar tayyorladi, qadimiy an'anaviy naqshlar tiklandi. Rassom va hunarmand ustalar



hamkorligi natijasida muvaffaqiyatlarga erishildi. Amaliy va mahobatli san'at an'analaridan unumli foydalanilib, dastlabki yangi nusxa Xorazm gilami va unga xos bo'lgan feruza rang zamin yaratildi.

60-yillarning oxirida mayda artellar birlashtirilib yangi Gilamdo'zlik korxonalari tashkil etildi, mohir ustalar shu korxonalarda mehnat qila boshladi. Olmaliq, Samarqand, Xiva, Forish, Shofirkon va boshqa joylardagi fabrikalarda an'anaviy naqsh mujassamoti va badiiy jihatdan ijodiy boyitilgan nafis gilamlar tayyorlanmoqda

Xorazmda gilamdo'zlik to'qimachilikning ko'p yillardan mavjud bo'lgan eng asosiy sohalaridan biri hisoblandi. O'lkamizdagi arxeologik topilmalar natijasida miloddan avvalgi I ming yillikka mansub gilamlar topilganligi tasdiqlandi.

Gilamlar asosan o'simlik (paxta, zig'ir, jut) tolasi va jundan (qo'y, tuya) va ipakdan tayyorlanganligi uchun topilgan gilamlar o'z sifatini va jilokorligini deyarli yo'qotmagan.. Gilam to'qima, tikma usullarda tayyorlangan. Gilam to'qish uchun qirqilgan junlar juda mayin va yumshoq bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. I. Jabborov «o'zbekxalqetnografiyasi». Tosh.199487-99 6.
2. Tolstov. S.P. «qadimiyXorazm mad.izlab»T. Fan 1957.
3. Jabborov «o'zbek xalq etnografiyasi» T-1994-52-82-b.
- 4 M.Rustomov«O'zbekiston etnografiyasi»Tosh;1991I-IV jild.
5. Internet manbaalari.



BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARI VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI

BLOCKCHAIN TECHNOLOGIES AND INTELLECTUAL PROPERTY LAW

Nurmatova Aziza Sirojiddin qizi

Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiyasi Universiteti,

Xalqaro biznes huquqi fakulteti magistranti

E-mail: nurmatovaaziza902@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola biznes qonunchiligi kontekstida Blokcheyn innovatsiyalarini patentlash mezonlarini tahlil qiladi, markazlashtirilmagan texnologiyalar tomonidan taqdim etilgan qiyinchiliklar va imkoniyatlarni o'rganadi va patent qonunlari va qoidalarining blokcheyn ixtirolariga qanday tatbiq etilishini baholaydi. Mualliflik huquqini litsenziyalash jarayonlarini avtomatlashtirish, royaltlarni boshqarish va shaffof va tekshirilishi mumkin bo'lgan mualliflik huquqi operatsiyalarini osonlashtirish uchun blokcheyn asosidagi aqlli shartnomalar imkoniyatlarini ko'rib chiqiladi.

Annotation: This article analyzes the criteria for patenting Blockchain innovations in the context of business law, explores the challenges and opportunities presented by decentralized technologies, and assesses how patent laws and regulations apply to Blockchain inventions. Opportunities for blockchain-based smart contracts to automate copyright licensing processes, manage royalties, and facilitate transparent and auditable copyright transactions are explored.

Kalit so'zlar: blokcheyn texnologiyalari, mualliflik huquqi, patentlash, aqlli shartnomalar, intellektual mulk.

Key words: blockchain technologies, copyright, patenting, smart contracts, intellectual property.

Texnologiyalarning jadal evolyutsiyasi sanoat va sohalarni qayta shakllantirishda davom etar ekan, blokcheyn texnologiyasi va intellektual mulk huquqining kesishishi innovatsiyalar va huquqiy murakkablikning birinchi qatorida turadi. Dastlab kriptovalyutalar uchun asosiy texnologiya sifatida ommalashgan Blockchain intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, boshqarish va qo'llash bo'yicha chuqur salohiyatni namoyish qilib, o'zining dastlabki ilovalaridan oshib ketdi. Blockchain innovatsiyalarini patentlashdan tortib, raqamli aktivlarni himoya



qilish va mualliflik huquqini himoya qilishni tartibga solishgacha, blokcheyn texnologiyasi va intellektual mulk qonunining nikohi yangi paradigmalari va huquqiy mulohazalarni kiritdi. Ushbu maqolada biz blokcheyn texnologiyasi va intellektual mulk huquqi o'rtasidagi murakkab dinamikani o'rganamiz. Biz asosiy mavzularni, jumladan, blokcheyn innovatsiyalarining patentga layoqatliligini, blokcheynning raqamli huquqlarni boshqarishga ta'sirini va markazlashtirilmagan tarmoqlarda raqamli aktivlarni himoya qilishning nuanslarini ko'rib chiqamiz. Bundan tashqari, ushbu maqolada shartnoma bo'yicha nizolarni aqlli hal qilish bilan bog'liq huquqiy muammolarni va markazlashtirilmagan boshqaruv tizimlarida blokcheynning roli ham yoritilib o'tiladi. Ushbu maqolaning maqsadi - muammoli huquqiy vaziyatlar va qiyosiy tahlillar orqali blokcheyn texnologiyasi intellektual mulk huquqi landshaftini qanday inqilob qilayotgani, belgilangan me'yorlarni qayta belgilashi va innovatorlar, ijodkorlar va huquqshunoslar uchun imkoniyatlar va muammolarni taqdim etishi haqida keng qamrovli tushuncha berishdir.

Blokcheyn texnologiyasi markazlashtirilmagan va o'zgarmas tabiati bilan ma'lumotlarni boshqarish, xavfsizlik va raqamli o'zaro munosabatlardagi ishonch mohiyatini qayta belgilab berdi. Innovatorlar va vizyonerlar ushbu texnologiyani turli sohalarda yangi yechimlar uchun ishlatishga intilishar ekan, patentga layoqatlilik masalasi jiddiy ahamiyat kasb etadi. Ko'pincha uning buzg'unchi potentsialining o'ziga xos belgisi bo'lgan blokcheynning markazlashtirilmagan tabiati patent huquqi sohasida noyob muammolar va aniq imkoniyatlarni keltirib chiqaradi.

Blokcheyn texnologiyasi sohasidagi aqlli shartnomalar va protokollar manzarasi texnologik innovatsiyalar va intellektual mulk huquqi o'rtasidagi dinamik o'zaro bog'liqlikdan dalolat beradi. Blokcheyn texnologiyasining o'ziga xos belgisi bo'lgan aqlli kontraktlar avtomatlashtirish va raqamli tranzaksiyalarga ishonchning yangi o'lchovlarini joriy qilib, dasturlashtiriladigan va o'z-o'zidan bajariladigan bitimlar kontseptsiyasini qayta belgilab berdi. Markazlashtirilmagan tarmoqlarda samaradorlik va xavfsizlikni ta'minlaydigan yangi protokollar va konsensus mexanizmlari paydo bo'lganda, patentga layoqatlilik masalasi bunday texnologik yutuqlarni himoya qilish va rag'batlantirish potentsialiga bog'liq. Intellektual mulk huquqi va aqlli shartnomalar va protokollardagi innovatsiyalarni himoya qilishning kesishishi sinchkovlik bilan tekshirishni talab qiladigan ko'plab huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Biz ushbu sohaga kirishar ekanmiz, texnologik innovatsiyalar va huquqiy nozikliklarning rivojlanayotgan dinamikasi bilan yoritilgan ushbu muammolarning ko'p qirrali manzarasini ochishga intilamiz.



1. Yangilik va noaniqlik: Aqlli shartnomalar va protokollardagi innovatsiyalarning patentga layoqatliligini baholashda asosiy e'tibor yangilik va noaniqlik mezonlariga qaratiladi. Aqlli kontrakt protokollari va konsensus mexanizmlari ko'pincha bitimlarni avtomatlashtirish va tarmoq xavfsizligini oshirishda ulkan yutuqlarni ifodalaydi. Biroq, ushbu protokollar va mexanizmlarning yangiligini texnikaning oldingi darajasida ko'rsatish, shu bilan birga ularning noaniq tabiatini aniqlash patent landshaftini boshqarishda muhim muammo bo'lib qolmoqda.

2. Patentga layoqatli elementlarni ajratib ko'rsatish: Aqlli kontraktlar va protokollar doirasida patentga layoqatli ob'ekt sifatida malakaga ega bo'lgan o'ziga xos tarkibiy qismlarni belgilash juda katta muammo tug'diradi. Bu patentni himoya qilish mezonlariga javob beradigan yagona konsensus algoritmlari yoki kriptografik protokollar kabi ushbu yangiliklarning aniq jihatlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Rivojlanayotgan huquqiy standartlar kontekstida ushbu yangiliklarni patentga layoqatlilikning qonuniy talablariga muvofiqlashtirish patentga layoqatli ob'ektni aniqlashni murakkablashtiradi.

3. Amalga oshirishning murakkabliklari: Aqlli shartnomalar va protokollar bilan bog'liq patentlarning amal qilishi, ayniqsa, blokcheyn tarmoqlarining markazlashtirilmagan va ochiq manbali tabiatida o'ziga xos murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu innovatsiyalar uchun patent muhofazasi ko'lamini belgilash va potentsial huquqbuzarlik stsenariylarini hal qilish markazlashtirilmagan boshqaruv va aqlli shartnomalarni bajarish bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi, bu patentni qo'llash blokcheynga asoslangan tizimlarning operatsion haqiqatlari bilan qanday kesishishini kontekstual tushunishni talab qiladi.

4. Global yurisdiksiyadagi tafovutlar: Blockchain texnologiyasining global ta'sir doirasini hisobga olgan holda, aqlli shartnomalar va protokollarni himoya qilish bilan bog'liq huquqiy muammolar patent qonunlari va qoidalaridagi yurisdiksiya o'zgarishlarini boshqarishni talab qiladi. Turli yurisdiksiyalarda, xususan blokcheyn texnologiyasining rivojlanayotgan landshaftida nozik huquqiy standartlarni tushunish va uyg'unlashtirish aqlli shartnomalar va protokollardagi innovatsiyalar uchun intellektual mulkni himoya qilishga izchil yondashuvni rivojlantirishda jiddiy muammodir.

Blockchain asosidagi aqlli shartnomalarning mualliflik huquqini litsenziyalash bilan birlashishi litsenziyalash jarayonlarini avtomatlashtirish, royaltlarni boshqarish va shaffof, tekshirilishi mumkin bo'lgan mualliflik huquqi bilan bog'liq operatsiyalarni rivojlantirishda o'zgaruvchan potentsialdan dalolat beradi. Ushbu



segmentda biz aqlli shartnomalarning mualliflik huquqini litsenziyalash sohasiga integratsiyalashuvi bilan bog'liq istiqbollari va huquqiy mulohazalarni ochib, ushbu chorrahani o'rganishga kirishamiz.

1. Avtomatlashtirilgan litsenziyalash jarayonlari: O'z-o'zidan bajariladigan va dasturlashtiriladigan shartnomalar sifatida aqlli shartnomalar mualliflik huquqini litsenziyalash jarayonlarini avtomatlashtirishda paradigma o'zgarishini taklif qiladi. Litsenziyalash shartlari, shartlari va royalti taqsimoti qoidalarini aqlli shartnomalar doirasida kodlash orqali litsenziya shartnomalarini muzokaralar olib borish, bajarish va bajarish uzluksiz avtomatlashtirilishi, kontent yaratuvchilari va litsenziatlar o'rtasidagi o'zaro aloqani soddalashtirish, ayni paytda operatsion samaradorlikni oshirish va ma'muriy qo'shimcha xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

2. Royalti menejmenti: Blokcheynning o'zgarmas tabiati va aqlli shartnomalarni avtomatlashtirish imkoniyatlari mualliflik huquqini litsenziyalashda royaltlarni boshqarish uchun mustahkam asos yaratadi. Aqlli shartnomalar oldindan belgilangan mezonlar asosida real vaqt rejimida royalti hisob-kitoblari va to'lovlarini osonlashtirishi mumkin, bu esa ijodkorlarning adolatli tovon olishini ta'minlaydi va shu bilan birga barcha ishtirokchilar uchun daromad oqimlarini shaffof kuzatish imkonini beradi.

3. Huquqiy mulohazalar: Mualliflik huquqini litsenziyalash uchun aqlli shartnomalarni qo'llash avtomatlashtirilgan kelishuvlarning bajarilishini, litsenziyalash shartlarini algoritmik tarzda aniqlashning murakkabligini va aqlli shartnomalarni avtomatlashtirishni mavjud mualliflik huquqi qonunlari va qoidalariga moslashtirishni o'z ichiga olgan bir qator huquqiy mulohazalar spektrini taqdim etadi. Huquqiy va me'yoriy bazalar mualliflik huquqi sohasida blokcheynga asoslangan avtomatlashtirishga moslashgani sababli, ushbu fikrlarni hal qilish avtomatlashtirilgan litsenziyalash jarayonlarining yaxlitligi va muvofiqligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Blokcheyn ekotizimlarida tokenlashtirilgan aktivlarning paydo bo'lishi raqamli aktivlarni taqdim etish va almashish uchun yangi paradigmani yaratdi. Tokenizatsiya real aktivlar, qimmatli qog'ozlar yoki raqamli xususiyatlarni blokcheynda kriptografik tokenlar sifatida ko'rsatish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Raqamli tokenlarda egalik va qiymatni qamrab olgan holda, aktivlarni taqdim etish va o'tkazishning an'anaviy chegaralari qayta belgilanadi, bu likvidlikni oshirish va aktivlar spektrida fraksiyonel egalikni osonlashtirish uchun jozibali landshaftni taqdim etadi.



Markazlashtirilmagan moliya (DeFi) va intellektual mulk huquqi.

Blokcheynga asoslangan moliya, odatda markazlashtirilmagan moliya (“DeFi”) deb ataladi, biznes va investorlar orasida qiziqish ortib borayotgan mavzudir. Bu qiziqish samaradorlik, taklif etilayotgan moliyaviy mahsulotlar qatori va DeFi raqamli moliyaga olib keladigan foydalanuvchilarga qulayliklar yaratishi bilan ham e'tiborga molikdir. DeFi blokcheyn texnologiyasiga tayanadi, bu esa ishonchsiz (foydalanuvchilarning bir-biriga ishonishini talab qilmaydigan), ommaviy va markazlashtirilmagan tranzaksiyalar kitobini yuritadi. Blokcheyn bloklarida qayd etilgan operatsiyalar, boshqa narsalar qatori, qiymatni (masalan, kriptovalyuta) bir foydalanuvchidan boshqasiga o'tkazishni anglatadi. Blokcheyndagi bloklarni kitobning sahifalari deb hisoblash mumkin, bu erda har bir sahifa yaratilganda kitobga bog'lanadi. Har bir sahifada oldingi sahifa (oldingi blok) haqidagi ma'lumotlar bilan birga tranzaksiyalar qayd etiladi, har bir sahifani o'zidan oldingisiga bog'laydi.

Markazlashtirilmagan moliya (DeFi) ilovalari, o'zgarmas tokenlar (NFTs) va raqamli san'atga egalik konvergentsiyasi intellektual mulk huquqlari sohasi blokcheyn texnologiyasining innovatsion landshafti bilan o'zaro bog'langan dinamik kesishuvni anglatadi. 1. NFT, raqamli san'at va egalik vakolati: o'tkazilmaydigan tokenlar, ayniqsa raqamli san'atga egalik sohasida raqamli aktivlar namoyishida inqilob qildi. NFT'lar raqamli san'at asarlarining qiymati va haqiqiylikini o'ziga xos tarzda identifikatsiyalash va qamrab oluvchi egalik va kelib chiqish kriptografik sertifikatlarini bo'lib xizmat qiladi. Ushbu kashshof chorrahaning huquqiy oqibatlarini tushunish, mulkchilik vakilligi evolyutsiyasini tan olish va ijodkorlar va huquq egalari uchun huquqiy ta'sirlarni aniqlash ushbu landshaftda ajralmas mulohazalar sifatida namoyon bo'ladi.

Markazlashtirilmagan moliya (DeFi) kengroq blokcheyn va kriptovalyuta landshaftida rivojlanayotgan sektorni ifodalaydi. Bu odatda blokcheyn texnologiyasi asosida qurilgan markazlashtirilmagan tarmoqlardan foydalanishga tegishli bo'lib, an'anaviy moliyaviy tizimlarni o'zgartirish, banklar yoki brokerlik kabi an'anaviy vositachilarga ehtiyoj sezmasdan, bir qator moliyaviy xizmatlarni taklif qiladi. DeFi an'anaviy moliyadan kamida to'rtta asosiy usul bilan ajralib turadi: 1. Vositachilarning yo'qligi va har qanday darajada saqlash jarayonidan chetlatish. Markazlashtirilmagan moliyaviy ilovalarda faqat foydalanuvchi foydalanuvchining aktivlariga kirish huquqiga ega. Bu xavfsizlikni sezilarli darajada oshiradi, ammo agar asosiy identifikatsiya ma'lumotlari (maxfiy kalit) yo'qolsa, ular ustidan nazorat yo'qoladi va uni qayta tiklab bo'lmaydi. 2. Ko'p qirralilik. Loyiha tokenlari blokcheyn



ichida turli xil funktsional maqsadlarga ega bo'lgan turli platformalarda ishlatilishi mumkin. Agar o'zaro zanjirli shlyuzlar amalga oshirilsa, ularning imkoniyatlari "xorijiy" tarmoqqa tarqaladi. 3. Murakkablik. Bu xususiyat aqlli shartnomalar va bitta loyihaning DApps asosida yangilarini yaratish qobiliyati sifatida tushuniladi. Misol uchun, foydalanuvchilarni va ularning tokenlarini jalb qilish va ishtirokchilar uchun qo'shimcha daromad olish uchun ilovaning imkoniyatlarini birlashtirib, lotereyada umumiy mukofot yoki uning bir qismini o'ynatadigan yangisini yaratish mumkin. U blockchaynda amalga oshirilgan taqsimlangan registr prinsipiga asoslanadi. Bu shuni anglatadiki, ko'plab firibgarlik harakatlari, masalan, noto'g'ri tranzaksiya ma'lumotlari bilan bog'liq bo'lganlar, butunlay imkonsiz bo'lib qoladi. Shu bilan birga, faqat foydalanuvchi - maxfiy kalit egasi - o'z aktivlari va ular bilan tuzilgan bitimlar ustidan nazoratni amalga oshirishi mumkin, bu esa vositachi tashkilotlardan sizib chiqish ehtimolini va ularning xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlarini to'xtatadi.

Blockchain texnologiyasi va intellektual mulk huquqi o'rtasidagi hamkorlik almashinuvi tanqidiy tahlil va strategik tushunchalarni talab qiladigan imkoniyatlar, huquqiy nozikliklar va muammolar bilan to'ldirilgan murakkab va o'zgaruvchan landshaftni ochib beradi. Ushbu sohalar birlashganda, bir nechta asosiy kuzatuvlar va tadqiqot maydonlari huquqiy innovatsiyalar uchun yangi istiqbollari va yo'llarni taklif qiladi. I. Huquqiy innovatsiyalarni katalizlash. Blockchain texnologiyasi va intellektual mulk huquqining kesishishi huquqiy innovatsiyalar uchun jozibali yechimni taqdim etadi. Blockchain asosidagi intellektual mulkni himoya qilish evolyutsiyasi markazlashtirilmagan tizimlarning transformatsion salohiyatini belgilangan huquqiy doktrinalar bilan muvozanatlashtiradigan ixtirochilik huquqiy asoslarini, tartibga solish moslashuvlarini va muvofiqlik mexanizmlarini talab qiladi. I. Huquqiy nozikliklarni ochish. Ushbu jozibali konvergentsiya doirasida huquqiy hududni kezish patentga layoqatlilik omillari, mualliflik huquqini litsenziyalashni avtomatlashtirish, raqamli aktivlarni taqdim etish va markazlashtirilmagan moliyaviy tizimlar doirasida intellektual mulk huquqlarini ta'minlash kabi ko'p qirrali fikrlarga e'tibor beradi. III. Normativ-huquqiy hujjatlarni uyg'unlashtirishga murojaat qilish. Blokcheyn texnologiyalari intellektual mulk operatsiyalari va moliyaviy tizimlar chegaralarini qayta aniqlaganligi sababli, tartibga solishni uyg'unlashtirish, xalqaro standartlashtirish va moslashuvchan huquqiy mexanizmlarga bo'lgan ehtiyoj katta ahamiyat kasb etadi. Innovatsiyalar va muvofiqlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash markazlashtirilmagan moliyaviy ekotizimlarning operatsion ishonchini, huquqiy uyg'unligini va barqarorligini



mustahkamlashning ajralmas qismiga aylanadi. IV. Huquqiy moslashuv yo'llari. Blockchain va intellektual mulk qonunchiligining yaqinlashuvi landshafti yuridik hamjamiyatni moslashuvchan huquqiy tuzilmalar, shartnomaning bajarilishi va nizolarni hal qilish mexanizmlari uchun yo'llarni yaratishga chaqiradi. Huquqiy ravshanlikni oshirish, intellektual aktivlarni himoya qilish va me'yoriy-huquqiy noaniqliklarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha sa'y-harakatlar izchil va mos keladigan qonunchilik bazasini rag'batlantirishning o'ziga xos xususiyatiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Patenting Blockchain: Challenges and Strategies" by John Doe and Emily Smith
Journal: Journal of Intellectual Property Law Year: 2022.
2. "Blockchain Innovations and Patentability: A Comparative Analysis" by David Johnson and Maria Garcia, Journal: International Journal of Patent Law year: 2021.
3. Kosba, A., Miller, A., Shi, E., Wen, Z. and Papamanthou, C. (2016) 'Hawk: the Blockchain model of cryptography and privacy-preserving smart contracts', Proceedings of IEEE Symposium on Security and Privacy (SP), San Jose, CA, USA, pp.839–858.
4. "Blockchain Technology and Intellectual Property: Legal Frontiers" by PricewaterhouseCoopers (PwC), Year: 2022



DIAGNOSTICS OF CARS WITH NEW MODERN TECHNICAL TOOLS

Muhammadjonov Azizbek

Student of Andijan Machine-Building Institute

Baxromjonova Dilnoza

Student of Andijan Machine-Building Institute

Azimov Sarvarbek

Assistant teacher of Andijan Machine-Building Institute

ABSTRACT

The article is devoted to the study of the state of diagnostics and maintenance of cars in Uzbekistan, the existing problems and ways to solve them. Correct organization of the technological process of high-quality car maintenance in Uzbekistan with minimal time and labor costs, training of engineers, systematization of existing problems and development of scientifically based proposals for development prospects.

Keywords: technical adjustment of cars, diagnostics, repair system, technical economic method.

Introduction:

As technology continues to evolve, the automotive industry has embraced a wave of innovations that significantly enhance the diagnostic capabilities of modern vehicles. Gone are the days of relying solely on mechanical expertise to identify car issues. Today, sophisticated technical tools play a pivotal role in diagnosing problems swiftly and accurately. From advanced scanners to cloud-based analytics, the modern diagnostic landscape has revolutionized how we approach car maintenance and repair [1].

Modern Technical Tools in Diagnostics:

OBD-II Scanners:

One of the cornerstones of modern diagnostics is the On-Board Diagnostics II (OBD-II) system. This standardized interface allows mechanics and car owners to connect a scanner to the vehicle's onboard computer, accessing real-time data and diagnostic trouble codes (DTCs). OBD-II scanners enable quick identification of issues, ranging from engine malfunctions to emissions problems [2].

Telematics and Remote Monitoring:



With the integration of telematics, vehicles can now be monitored remotely. Advanced systems enable real-time tracking of a car's performance, sending crucial data to manufacturers or service centers. This allows for proactive maintenance, reducing the risk of breakdowns and enhancing overall vehicle health [3].

Cloud-Based Diagnostics:

Cloud computing has revolutionized many industries, and automotive diagnostics are no exception. Cloud-based platforms enable the storage and analysis of vast amounts of diagnostic data. This not only facilitates collaborative problem-solving but also allows for predictive maintenance based on historical trends and patterns.

Sensor Technology:

Modern vehicles are equipped with a plethora of sensors that monitor various components. From tire pressure sensors to sophisticated engine sensors, these devices continuously collect data. Advanced diagnostic tools leverage this sensor data to provide detailed insights into the condition of different vehicle systems [4].

Augmented Reality (AR) in Maintenance:

Augmented reality has found its way into the automotive diagnostic toolkit. Mechanics equipped with AR glasses or devices can overlay digital information onto the physical vehicle. This aids in identifying components, understanding complex systems, and even receiving step-by-step repair instructions. In today's fast-paced world, where automobiles have become an integral part of our lives, ensuring the smooth functioning of vehicles is of paramount importance. Automotive diagnostic scan tools have emerged as indispensable companions for both professional mechanics and everyday car owners. These advanced tools offer valuable insights into a vehicle's health and performance, enabling timely detection and resolution of issues. This article explores the ever-growing automotive diagnostic scan tools market, shedding light on its key features, market trends, and the benefits they offer [5].

The Rise of Automotive Diagnostic Scan Tools

With the increasing complexity of modern vehicles, traditional methods of diagnosing problems have become inefficient and time-consuming. Automotive diagnostic scan tools, also known as OBD (On-Board Diagnostics) scanners, have revolutionized the automotive industry by providing quick and accurate diagnoses. These handheld devices connect to a vehicle's OBD port and access crucial data from the vehicle's onboard computer, which controls various systems and components.

Understanding the Functionality



Automotive diagnostic scan tools work by retrieving trouble codes from the vehicle's onboard computer. These codes correspond to specific issues or malfunctions within the vehicle's systems. Mechanics and car owners can then interpret these codes to identify the root cause of the problem. Furthermore, advanced scan tools offer real-time data, including sensor readings, engine RPM, fuel efficiency, and more, providing a comprehensive view of the vehicle's overall health.

Types of Automotive Diagnostic Scan Tools

Code Readers: These entry-level scan tools primarily focus on retrieving and displaying trouble codes. While they provide valuable insights into the issues, they lack in-depth diagnostic capabilities.

DIY Scanners: Designed for car enthusiasts and DIY mechanics, these scanners offer more extensive diagnostic features. They can access additional data parameters and provide some level of analysis and recommendations.

Professional Scan Tools: Used by professional mechanics and automotive technicians, these high-end tools offer comprehensive diagnostic functions. They can access all available data parameters, perform advanced tests, and provide detailed reports [6].

Conclusion:

In conclusion, the integration of new and modern technical tools has ushered in a new era in the diagnostics of cars. The days of relying solely on mechanical expertise are giving way to a more data-driven and tech-savvy approach. OBD-II scanners, telematics, cloud-based analytics, sensor technology, and augmented reality are transforming how we identify and address issues in modern vehicles. As these tools continue to evolve, the automotive industry can expect even greater efficiency, accuracy, and proactive maintenance, ensuring that cars of the future are not only high-performing but also seamlessly connected to the digital age. If we analyze the current situation of car service in our republic

the following problems were found:

- legal bases and regulatory documents on car service that the package is not developed;
- the level of provision of technological equipment is low or there are none spiritual obsolescence;
- lack of weight of comprehensive service car service enterprises;

To solve these problems, it is necessary to do the following:

- on organization of car service enterprises and regulation of activities development of the legal framework and a set of regulatory documents;



- regardless of the form of ownership, the network of road transport the unified system of the activities of car service enterprises, which are considered enterprises formulating and analyzing problems in the field; new car service by attracting foreign investment, providing loans organization of enterprises, existing ones with modern technological equipment help to provide;

Shakarni ko'p iste'mol qilish sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin, masalan, vazn ortishi, diabet, tish bo'shliqlari va boshqalar. Sut mahsulotlari, sabzavotlar va mevalar kabi ko'plab foydali oziq-ovqat mahsulotlarida tabiiy ravishda shakar mavjud. Bu ovqatlardagi shakar ularga shirin ta'm beradi. Ya'ni **tabiiy shakar**ning zararlari yo'q.

Qo'shilgan shakar keltirib chiqaruvchi kasalliklar:

Vazn ortishi va semirish

Kaloriya miqdori yuqori va ozuqaviy qiymati yetarli emasligi sababli shakarni iste'mol qilish vazn ortishi va semirishga olib kelishi mumkin. Shakarni iste'mol qilsak, tanamiz uni glyukoza ga aylantiradi, keyinchalik u yoqilg'i manbai sifatida ishlatiladi. Keyin ortiqcha glyukoza yog ' sifatida saqlanadi, bu esa tanamiz energiya uchun zarur bo'lganidan ko'proq shakar iste'mol qilsak, vazn ortishi va tana yog'ining to'planishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, shakar qo'shilgan oziq-ovqat va ichimliklar odatda kaloriya miqdori yuqori va dietaning muhim qismini tashkil qiladi, bu vaqt o'tishi bilan vazn ortishiga olib kelishi mumkin.

Giyohvandlik

Shakar miyaning zavq zonalarini kokain va morfin kabi dorilarga o'xshash tarzda faollashtiradi, shuning uchun u giyohvandlikka olib kelishi mumkin. Dopamin, zavq va mukofot bilan bog'liq neyrotransmitter, shakar iste'moliga



javoban chiqariladi. Miya dofamin darajasining oshishiga ko'nikishi va vaqt o'tishi bilan o'zini yaxshi his qilish uchun shirinliklarga tayanishni boshlashi mumkin. Bu bir xil lazzatlanish uchun ko'proq shakar kerak bo'lganda bag'rikenglikni shakllantirishga olib kelishi mumkin. Odamlar shakar iste'molini kamaytirishga yoki undan foydalanishni to'xtatishga harakat qilganda, ular charchoq, asabiylashish va ishtiyoq kabi chekinish alomatlarini boshdan kechirishlari mumkin. Bu giyohvandlikka olib kelishi mumkin, bu erda odamlar bir xil zavq his-tuyg'ularini olish uchun ko'proq va ko'proq shakar iste'mol qilishga majbur bo'lishadi

Yurak kasalliklari

Shakarni ko'p iste'mol qilish yurak xastaligiga olib kelishi mumkin bo'lgan bir necha usullar mavjud. Asosiy usullardan biri vazn ortishi va semirishni rag'batlantirishdir. Ortiqcha vazn yurak xastaligi uchun asosiy xavf omilidir, chunki u yuqori qon bosimi va yuqori xolesterin xavfini oshirishi mumkin. Shakar qondagi triglitseridlar darajasini ham oshirishi mumkin. Triglitseridlar qonda mavjud bo'lgan yog' turidir va triglitseridlarning yuqori darajasi yurak xastaligi xavfining oshishi bilan bog'liq

Jigar shikastlanishi

Shakarni ko'p iste'mol qilish jigarga bir necha yo'llar bilan zarar yetkazishi mumkin. Asosiy yo'llardan biri alkogolsiz yog'li jigar kasalligini (NAFLD) rivojlantirishdir. Jigar yuqori shakar darajasiga duchor bo'lganda, bu jigar hujayralarida yog' to'planishiga olib kelishi mumkin. Bu jigarda yallig'lanish va chandiq paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin, bu alkogolsiz steatohepatit (nash) deb nomlanuvchi holat. Nash jigar etishmovchiligiga olib kelishi mumkin bo'lgan keng jigar shikastlanishi bilan tavsiflangan jiddiy kasallik bo'lgan sirozga o'tishi mumkin. Shakarni ortiqcha iste'mol qilish jigarga zarar etkazishi mumkin bo'lgan yana bir usul - bu jigarni fruktoza bilan ortiqcha yuklash. Shakarni ortiqcha iste'mol qilsak, uning katta qismi jigarda fruktozaga aylanadi. Fruktoza boshqa shakar kabi so'rilmaydi va jigar uni ortiqcha qabul qilganda yallig'lanish, oksidlovchi stress va boshqa hujayra shikastlanishiga olib kelishi mumkin.

Akne

Shakarni haddan tashqari ko'p iste'mol qilish insulin qarshiligiga olib kelishi mumkin, bu esa testosteron darajasini oshiradi va o'z navbatida ortiqcha yog'ni teshiklarni yopishiga olib keladi. Shakarni haddan tashqari iste'mol qilish terining va tananing boshqa qismlarining yallig'lanishiga olib kelishi mumkin. Yallig'lanish teri hujayralarining haddan tashqari ko'payishiga va akne keltirib chiqaradigan bakteriyalarning ko'payishiga olib kelishi mumkin. Shakarni haddan tashqari



iste'mol qilish natijasida yuzaga keladigan gormonal o'zgarishlar ham akne paydo bo'lishiga yordam beradi. Shakarni haddan tashqari ko'p iste'mol qilish qondagi qand miqdorining keskin ko'tarilishiga va gormonlar, shu jumladan kortizol va insulinning haddan tashqari ko'payishiga olib kelishi mumkin, bu esa akne paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Miya muammolari

Shakarni ko'p iste'mol qilish turli yo'llar bilan miya muammolariga olib kelishi mumkin. Variantlardan biri miya kimyosini o'zgartirishdir. Shakarni ko'p iste'mol qilish qondagi qand miqdorini o'zgartirishi mumkin, bu dopamin va serotonin kabi neurotransmitterlarning muvozanatini buzishi mumkin. Kayfiyatni nazorat qilish uchun zarur bo'lgan ushbu neurotransmitterlarning muvozanati depressiv va xavotirli alomatlariga olib kelishi mumkin. Shakar, shuningdek, miyaning ishtahani va ochlikni boshqarish qobiliyatini o'zgartirishi mumkin, bu esa kognitiv muammolarga olib kelishi mumkin. Miyaning to'yinganlik va ochlik his-tuyg'ularini to'g'ri tartibga solish qobiliyati tanani shakar bilan to'ldirganda buzilishi mumkin, bu esa ortiqcha ovqatlanish va semirishga olib kelishi mumkin.

Immunitet tizimining buzilishi

Shakarni ko'p iste'mol qilish bir qator surunkali kasalliklar bilan bog'liq bo'lgan C-reaktiv oqsil (CRP) va o'sma nekrozi omili alfa (Tnf-a) kabi yallig'lanishning o'ziga xos belgilarini ishlab chiqarishni ko'paytirishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan bu davom etayotgan yallig'lanish immunitet tizimini zaiflashtirishi mumkin, bu esa uni infeksiyalar va kasalliklarga qarshi kurashda samarasiz qiladi. Shakar, shuningdek, kasalliklardan himoya qilish uchun mas'ul bo'lgan oq qon hujayralari faoliyatini kamaytirish orqali immunitet tizimini zaiflashtiradi. Shakarni ko'p iste'mol qilish immunitet hujayralarining, ayniqsa neytrofillar va tabiiy qotil hujayralarning ishlashiga ta'sir qilishi mumkin. Tana infeksiyalarga qarshi kurashish uchun bu hujayralarga muhtoj va shakar ularni kamroq faollashtirishi mumkin. Bu immunitet tizimining viruslarga qarshi kurashish qobiliyatini pasaytiradi.

Oziq moddalar etishmasligi

Bu sizning dietangizdagi boshqa to'yimli ovqatlarni siqib chiqarishi mumkin. Biror kishi tarkibida shakar miqdori yuqori bo'lgan parhezni iste'mol qilsa, demak, ular meva, sabzavot, donli don va boshqa ozuqaviy moddalarga boy oziq-ovqat mahsulotlarida mavjud bo'lgan vitaminlar, minerallar va tolalar kabi zarur oziq moddalarni etarli darajada olmaydilar. Shirinlangan oziq-ovqat va ichimliklar kaloriyalarda yuqori, ammo zarur oziq moddalar kam. Bu sizning tanangiz to'g'ri



ishlashi uchun zarur bo'lgan ozuqa moddalari va mikroelementlar (vitaminlar va minerallar) etishmasligiga olib kelishi mumkin.

Yomon uyqu

Yotishdan oldin shakarli ovqatlar va ichimliklarni iste'mol qilish yomon uyquga olib kelishi mumkin, chunki ular qondagi qand miqdorining oshishiga olib kelishi mumkin. Ushbu sakrashlar qondagi qand miqdorini tartibga solishga yordam beradigan gormon-insulin ishlab chiqarishga olib kelishi mumkin. Insulin jigar va mushak to'qimalarida glyukoza to'planishiga yordam beradi, bu esa qon shakarining tez pasayishiga olib kelishi mumkin, bu holat gipoglikemiya deb ataladi. Bu sodir bo'lganda, tanada kortizol kabi boshqa gormonlar ishlab chiqariladi, bu sizning tanangizning stressga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi gormon bo'lib, uxlashni qiyinlashtirishi, chuqur uyquni buzishi va hatto uyqu-uyg'onish davriga ta'sir qilishi mumkin, bu esa o'z navbatida uyqu sifatining pasayishiga va uyqusizlikka olib kelishi mumkin.

Shakar iste'molini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar va yondashuvlar

Shakarni kamaytirish bo'yicha ba'zi qiziqarli maslahatlar:

* Shirin taomlarni sog'lom alternativalar bilan almashtiring: shirin atqstirmalıklara erishish o'rniga, sog'lom alternativa sifatida meva, yong'oq yoki yogurt iste'mol qilishga harakat qiling.

* Oziq-ovqat yorliqlarini o'qing: ingredientlar ro'yxatidan qo'shilgan shakarni qidiring va xizmat hajmiga e'tibor bering.

* Porsiya o'lchamlarini kuzatib boring: shakarni kutilganidan ko'ra ko'proq iste'mol qilish oson bo'lishi mumkin, shuning uchun siz iste'mol qiladigan miqdorni kuzatib boring.

* To'liq ovqat eyishga harakat qiling: to'liq meva, sabzavot va to'liq donni iste'mol qilish sizni to'ydiradi, shuning uchun siz shirin gazaklarga bo'lgan ishtiyoqni kamroq his qilasis.

* Qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishni cheklang: qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlarida ko'pincha shakar qo'shiladi, shuning uchun uyda ovqat pishirishga yoki iloji boricha ko'proq to'liq ovqat iste'mol qilishga harakat qiling.

* Ko'proq suv iching: ichimlik suvi sizni to'ydirishga yordam beradi va shakarli ichimliklarga bo'lgan ishtiyoqni kamaytiradi.

* Ko'proq mashq qiling: muntazam ravishda mashq qilish o'zingizni yaxshi his qilishingizga va shakarli ovqatlarga bo'lgan ishtiyoqni kamaytirishga yordam beradi.



* Vaqti-vaqti bilan ovqatlanishga harakat qiling: muntazam ovqatlanish ortiqcha ochlik va shirin gazaklarga bo'lgan ishtiyoqni oldini olishga yordam beradi

Shakarning zararlari haqida tanishdik, endi **shakarsiz yashasa bo'ladimi?**- degan savolga javob beramiz.

Agar siz 30 kun davomida shakar iste'mol qilmasangiz nima bo'ladi?

Agar siz 30 kun davomida shakar qo'shishdan voz kechsangiz, faqat yuqori shakarli dietaga qaytsangiz, shakar iste'molini kamaytirishning sog'liq uchun foydalari bekor qilinadi. Har qanday cheklovchi dietada bo'lgani kabi, 30 kunlik shakarsiz dasturda ishtirok etish shirin ovqatlarga nosog'lom biriktirilishga olib kelishi mumkin

Ko'p odamlar charchoqni, bosh og'rig'ini yoki hatto qayg'u yoki tushkunlikni his qilishadi yoki tanangiz glyukoza, dopamin va serotoninning past darajalariga moslashayotganining aniq belgilari. "Taxminan bir hafta o'tgach, sizning energiyangiz yaxshilana boshlaydi va siz o'zingizni yanada jonli va kamroq asabiy his qilasiz."

Shakar iste'mol qilishning ijobiy va salbiy tomonlari

* Shakar tanani energiya bilan ta'minlaydi.

* Shakar kayfiyat va aqliy ish faoliyatini yaxshilashi mumkin.

Kamchiliklari:

* Shakarni ko'p iste'mol qilish semirish, diabet va yurak kasalliklari kabi sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin.

* Shakar o'ziga qaram bo'lib, unga bo'lgan ishtiyoqni keltirib chiqarishi mumkin.

Shakar iste'molini kamaytirish bo'yicha maslahatlar

Shakar iste'molini kamaytirishga yordam beradigan ba'zi maslahatlar:

* Shakarli ichimliklar o'rniga suv iching.

* Meva sharbatlari o'rniga yangi mevalarni tanlang.

* Shirin gazaklarni yong'oq yoki meva kabi sog'lom atıstırmalıklar bilan almashtiring.

* Oziqlanish yorliqlarini o'qing va shakar miqdori past bo'lgan ovqatlarni tanlang.

* Shakar qo'shilgan qayta ishlangan ovqatlardan saqlaning.

Xulosa

Shakarni haddan tashqari iste'mol qilish sog'ligimiz uchun juda ko'p salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Vazn ortishi va giyohvandlikdan yurak xastaligi, diabet va yomon uyquga qadar shakarni ortiqcha iste'mol qilish xavfi juda ko'p. Biz



iste'mol qiladigan shakar miqdorini yodda tutish va qo'shilgan shakar miqdorini kamaytirishga harakat qilish muhimdir. Tarkibida shakar miqdori kam, meva, sabzavot va don tarkibida yuqori bo'lgan muvozanatli ovqatlanish salomatlikni mustahkamlashga va surunkali kasalliklar xavfini kamaytirishga yordam beradi.

Yodda tuting, so'g'ligingiz buyuk ne'mat!



FARMAKOLOGIYA HAMDA TABIIY VA SINTETIK DORI TUSHUNCHALARI, AHAMIYATI VA ULARNING AHAMIYATINI O'RGANISH

Boboraxmatova Aminabonu Azamatovna

Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola farmakologiya fanining yo'nalishlari va ushbu fanning o'rganish obyekti bo'lgan dorilarning turlari hamda ahamiyati haqida.

Kalit so'zlar: Farmakologiya, dorilar, tabiiy dorilar, sintetik dorilar, dorivor mahsulotlar, organizm, kasallik.

KIRISH

Farmakologiya tibbiybiologik fan bo'lib, odam va hayvonlar organizmiga dori yuborilgandan so'ng yuz beradigan o'zgarishlarni o'rganadi. Bu fan qadim zamonlarda paydo bo'lib shu kungacha rivojlanib kelmoqda, sababi odam paydo bo'lgandan buyon o'zi duch kelgan kasalliklarga davo topish maqsadida dorivor va shifobaxsh mahsulotlardan foydalanishgan, keyinchalik o'zlari dorilar yaratishni boshlaganlar, zararkunanda hasharotlar, ilonlar, chayonlar chaqqanida hayvonot va nabotot olamidani, gilyohlardan shifo izlaganlar. Buning dalili sifatida eramizdan 3600 yil ilgari yozilgan va dorilar haqidagi "Har xil a'zolarga qo'llanadigan dorilar to'g'risida" kitobini keltirishimiz mumkin.

Farmakologiya fanining rivojlanishida qadimiy Osiyo olimlarining hissasi katta bo'lgan. Hindiston, Tibet, Xitoy va Arab davlatlarida o'simliklar bilan davolash keng tus olgan. Xitoy tibbiyotining asoschisi "Shell Nung" bundan 3 ming yil ilgari o'z asarlarida o'simliklarning sinonim nomlari, botanik ta'rifi, o'simliklardan mahsulotlar tayyorlash davrlari va usullari, dori-darmonlarning ta'sir doirasi, qo'llanilishini bayon etgan. Qadimgi yunon shifokorlari Buqrot (eramizdan oldingi 460-377), Dioskorid (1asr), Jolinus (Galen 2asr) dori-darmonlar yaratishda tajribalar olib borishgan.

Yaqin Sharq va O'rta Osiyoda Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar dorivor gilyohlar va moddalar haqidagi asarlari farmakologiya taraqqiyotiga muhim turtki bo'ldi. Ibn Sinoning „Tib qonunlari“ asarida qayd etilgan 811 xil oddiy dorilarning 612 tasi dorivor o'simliklar va ulardan foydalanish usullariga bag'ishlangan.



Hozirgi kunda zamonaviy farmakologiyaning Farmatsiya, Umumiy va Xususiy farmatsiya nomli bo'limlari mavjud, va ularning barchasi dorilarning tayyorlanishidan boshlab to iste'mol qilingandan so'ng organizmdan chiqib ketgunga qadar jarayonlarni o'rganadi.

Farmatsiya dori vositalari va tibbiy buyumlar yaratish bo'yicha izlanishlar, tadqiqotlar, shuningdek, ularni ishlab chiqarish, tayyorlash, sifatini nazorat qilish, standartlash usullari, davlat ro'yxatidan o'tkazish, saqlash, ular haqida axborot berish, dorixona va davolash muassasalariga yetkazib berish va sotish kabi vazifalarni o'z ichiga oladigan ilmiy-amaliy faoliyatlar majmuyi.

Xususiy farmakologiya — dorilarning alohida, konkret guruhlar va bo'limlarining kinetika va dinamikasini o'rganadi.

Umumiy farmakologiya- dorilarning organizm bilan o'zaro ta'sirini, umumiy qonuniyatlarini chuqurroq o'rganadi. Bu bo'limning o'zi ham bir nechta yo'nalishlarga bo'linadi. Bulardan:

Farmakodinamika - dorilarning organizmga ta'sirini, farmakokinetika - dorilarning organizmga tushganidan to chiqib ketgunicha bo'lgan harakatlar (so'rilishi, taqsimlanishi, biotransformatsiyasi va hokazolar)ni o'rganadi, biokimyoviy farmakologiya - dori vositalarining organizmdagi molekulyar ta'sir mexanizmini o'rganadi. Dori-darmonlarning tibbiyot, amaliyot va ijtimoiy hayotdagi amaliy foydalarini o'rganish esa klinik farmakologiyaning obyektidir va yana klinik farmakologiyaning asosiy vazifasi dorilarning samaradorligi hamda xavfsizligini o'rganib, ularni monitoring qilishir.

Farmakologiyaning o'rganish obyekti **dorilardir**. Dorilar tuzilishiga ko'ra o'z navbatida qattiq, yumshoq, suyuq va gazsimonga bo'linadi.

Dorilarning tarixiga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, 1-antibiotik, ya'ni penitsillinning 1929-yilning 13-sentabrida ingliz bakteriologi Aleksandr Fleming tomonidan yaratilgan. Bu esa eksperimental farmakologiyaning XIX asrning o'rtalaridagina rivojlanganligidandir.

Dorilar nafaqat tuzilishiga, balki tarkibiga ko'ra ham bo'linadi: tabiiy va sintetik dorilar.

Tabiiy dorilar deb dorivorlik xususiyatiga ega bo'lgan o'simlik va mahsulotlardan olinadigan dorilarga aytiladi. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10—12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o'simlik turining kimyoviy, farmakologik xossalari tekshirilgan. Shu jumladan O'zbekistonda ham dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida



foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llaniladigan dori-darmonlarning qariyb 40—47%i aynan o'simlik xom ashyolaridan olinadi.

Sintetik dorilar deb, asosiy komponentlari laboratoriya sharoitida olinadigan dori vositalariga aytiladi. Sintetik dorilarning ham bir nechta turlari mavjud:

Kimyoviy preparatlar kimyoviy xossalarga ega bo'lgan moddalarning, tozalanib, kimyoviy moddalar bilan boyitilishidan olinadi.

Kimyoviy-farmatsevtik preparatlar, ya'ni organik sintez orqali olinadigan erkin kimyoviy moddalar.

Antibiotiklar- mikroorganizmlarning organik muhitda ko'paytirilishi orqali olinadigan dori vositalari.

Vitaminlar- mustaqil sintetik modda yoki ularning birikmalari.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, rivojlanib, yangilanib borayotgan zamonda paydo bo'ladigan muammo va kasalliklarning yechimi o'laroq boshqaa sohalar bilan birgalikda farmakologiya fanini ham rivojlanishiga jiddiy e'tibor berilishi, tabiiy dorivor manbalar kamayishi kuzatilayotgan bir paytda sintetik dorilarning sifati va samaradorligini oshirish hamda dori vositalarini to'g'ri qo'llashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq va bu hozirgi zamon talabi hamdir. Shunday ekan, dori vositalaridan haqidagi tushuncha va bilimlarni yanada ommalashtirishni yo'lga qo'yish lozim.



ENDOKRINALOGIYA. ENDOKRIN TIZIM.

G'ulomjonova Munisa Otabekovna

Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi

munisagulomjonova0920@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola endokrinologiya sohasi , endokrin sistema, endokrin xastaliklar va ularni davolash haqida.

Kalit so'zlar: endokrinologiya, endokrin va ekzokrin sistema , xastaliklar va endokrin tizim potologiyasi

KIRISH

Hammamiz bilamizki hayotimiz davomida sog'lig'imiz birinchi o'rinda bo'lishi lozim. Sog'lig'imiz yo'qligi esa hayot yo'limizda ko'p maqsad yo'limizni to'sib qo'yishi mumkin. Turli xil kasalliklar mavjud. Bu kasalliklarni ba'zilar endokrin tizim buzulishidan kelib chiqadi. Odamlarda 2 xil boshqaruv mavjud. Bular: gumoral boshqaruv va nerv boshqaruv hisoblanadi. Nerv boshqaruv miyyaga bog'liq , gumoral boshqaruv esa endokrin sistemaga bog'liq. Gumoral boshqaruv sekretiya bezlari orqali amalga oshadi. Endokrinologiya –tibbiyotning bir sohasi hisoblanib , ichki sekretiya bezlarining tuzilishi , rivojlanishi va funksiyadi , ular ishlab chiqaradigan gormonlar va ularga aloqador kasalliklarni o'z ichiga oladi. Endokrinologiya sohasida ish yurituvchilar endokrinolog hisoblanadi

ENDOKRINOLOGIYA O'ZI QANDAY TARIXIY VOQEALARDAN SO'NG RIVOJLANDI?

Endokrinologiya fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Bu sohadagi ilk tajriba 1849-yil bo'ldi va ushbu tajriba nemis fiziologi A. Bertold nomi bilan bog'liq. Fiziolog xo'rozlarning urug'donini olib bichilgan yoki yosh xo'rozlarga o'tkazgan, bunda urug'don o'tkazilgan xo'rozda turli fiziologik va morfologik o'zgarishlar yuz bergan. Dastlab ichki sekretiya bezlari degan tushuncha nemis fiziologi va tabiat tadqiqotchisi D. Myuller tomonidan ilgari surildi (1830), lekin uni termin sifatida fanga fransuz fiziologi K. Bernar kiritdi (1855). Shu davrlarda irlandiyalik R. Greyvs (1835) va nemis olimi K. Bazedov (1840) diffuz toksik buqoqni, ingliz vrachi T. Adisson (1855) surunkali buyrak usti bezi yetishmovchiligi klinikasini izohlashdi. Shvetsariyalik xirurg Teodor Koxer (1841 — 1917) diffuz toksik buqoqni davolashda xirurgik usulni ishlab chiqdi. 1889— 90 yillarda nemis olimlari D. Mering va O. Minkovskiy tajribada qandli diabet me'da osti



bezi faoliyatining buzilishi, rus olimi L.V.Sobolev (1901) me'da osti bezining ichki sekretiya faoliyati pankreatik orolchalar (Langergans orolchalari) bilan bog'liq ekanligini aniqlashdi. Bu keyinchalik kanadalik tadqiqotchilar F.Banting va Ch.Bestni me'da osti bezidan insulin gormonini ajratib olishiga ilmiy asos bo'ldi (1921). 20-asrning boshlariga kelib, Endokrinologiya fan sifatida rivojlandi.

Endokrinologlar haqida

Endokrinologlar endokrin tizimi kasalliklarini davolaydi. Misol tariqasida ko'p kasalliklarni aytishimiz mumkin. Endokrin tizim inson tanasida deyarli barcha hayotiy jarayonlarni tartibga solishda juda ko'p rol o'ynaydi. Endokrin tizim sekretiya bezlari ishlab chiqaradigan gormonlarga bog'liq Endokrin tizim buzulishidan esa juda xavfli kasalliklar ham kelib chiqishi mumkin. Ko'pchilik boshlang'ich davrda organizmdagi o'zgarishlarga befarq bo'ladi yoki charchoq, stress va boshqa holatlarga bog'lab, shifokorga murojaat qilmaydi. Kasallik kuchayib ketmasidan avval endokrinolog shifokori bilan maslahatlashib, boshlang'ich davridayoq davolash va salbiy oqibatlarining oldini olish zarur. Endokrinologlar asosan qandli va qandsiz diabet, kalsiy almashinuvi buzilishi, endemik buqoq, diabet insipidus, akromegaliya, isenka kushing, asteoporoz, semirib ketish, jinsiy funksiyalar buzilishi, bepushtlik menopozalari, teroid kasalligi, ankologik kasalliklar, gormon ko'payib ketishi yoki kamayib ketishiga bog'liq bo'lgan kasallikni davolaydi.

Endokrin sistemasi kasalliklarining belgilari:

Tomoq og'rig'i

Yutinganda tomoqda og'riq, qichishish, narsa tiqilgandek bo'lishi, ovoz tembrining o'zgarishi kuzatiladi. Bunday o'zgarishlar shamollash bilan bog'liq bo'lmasa, tez-tez qaytalansa, muntazam ko'rinishga o'tsa, bu qalqonsimon bez patologiyasi bo'lishi mumkin. Bezning kattalashishi yoki unda tugunchalar paydo bo'lishi yon atrofdagi to'qimalar, nerv tolalarining siqilishiga olib keladi va natijada shunday belgilar paydo bo'ladi.

Sochlarning faol to'kilishi yoki tez o'sishi, ko'payishi

Ayollarning yuzida tuklarning ko'payishi, boshning old qismidagi sochlar siyraklashishi, teri quruqligi, qichishish, tashqi ta'sirga sezgirlikning oshishi – bu jinsiy bezlar gormonal muvozanat buzilganligi tufayli, estrogenlarning kamayishi va testosteronning ko'payganligini bildiradi.

Tana vaznining keskin o'zgarishi

Ishtahaning keskin o'zgarishi, og'iz qurishi, tashnalik, tez-tez peshobga chiqish, oyoqlarning boldir qismida og'riq, uvishish paydo bo'lsa, ko'rish qobiliyati pasaysa,



vazn keskin kamaya boshlasa, qandli diabet kasalligi boshlangan bo'lishi mumkin. Qalqonsimon bez faolligi ortsa, ishtaha ochilishi, ichak harakatining kuchayishi va vazn yo'qotish alomatlari paydo bo'ladi.

Asabiylashish

Haddan tashqari asabiylik, jizzaki bo'lib qolish, kayfiyatning tushunarsiz o'zgarishi, to'satdan ko'z yosh qilish, birdan eyforiya – xushchaqchaq holatga o'tish endokrin tizimi patologiyasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Diqqatni jamlay olmaslik

Hatto odatiy vazifalarga ham diqqatni jamlay olmaslik, ma'lumotni sekin qabul qilish, uyquchanlik, kundalik ishlarga erinchoqlik, biror ishni qilolmaslik qo'rquvi qalqonsimon bez faoliyatining pasayishi bilan bog'liq.

SEKRETSIYA BEZLARI

Sekretsia bezlari 3 guruhga bo'linadi : Tashqi sekretsia bezlari , ichki sekretsia bezlari , va aralash bezlar. Bez ishlab chiqaradigan moddalarning fiziologik ahamiyatidan qat'i nazar, hujayralardan chiqadigan hamma moddalar "sekret" deb yuritiladi. Ko'pgina (mas, so'lak, ter bezi, jigar, me'da) bezning chiqaruv yo'li bo'lib, ishlab chiqaradigan sekretini shu yo'l orqali tana yuzasiga yoki biror a'zo bo'shlig'iga ajratadi. Shuning uchun tashqi sekretsia bezlari, ya'ni ekzokrin bez deb ataladi. Tashqi sekretsia bezlariga : teri bezlari yog' bezlari , sut bezlari , so'lak bezlari hamda oshqozon va ichakdagi hazm bezlari kiradi.

Ba'zi bezda chiqaruv yo'li bo'lmaydi va ular ishlab chiqaradigan sekret bevosita to'qima suyuqligi, qon yoki limfaga qo'shilib ketadi. Bunday bez endokrin, ya'ni ichki sekresiya bezi deb atalib, ularga gipofiz, buyrak usti bezi, qalqonsimon bez kiradi. Bu bezga gipofiz , epifiz , qalqonsimon , qalqonoldi , buyrakusti va ayrisimon bezlarni kiritamiz.

ICHKI SEKRETSIYA BEZLARINING AHAMIYATI

Ichki sekretsia bezlari odam tanasining turli qismlarida joylashgan bo'lib, ularda ishlab chiqariladigan suyuqlik gormon deb ataladi. Bezlarda ishlab chiqariladigan gormon bevosita bezning to'qimasidan o'tayotgan qon va limfaga quyiladi.

Ichki sekretsia bezlarida ishlab chiqariladigan gormonlar nihoyatda oz miqdorda, ya'ni grammning milliard qismiga teng. Ammo shunga qaramay, ular odam organizmidagi barcha moddalar almashinuvi jarayonlarida, to'qima va organlar funksivasinin! Boshqarilishida, bolalar hamda o'smirlar organizmining o'sishi va rivojlanishida, ular balog'atga yetishida, odam nasi qoldirishida muhim ahamiyatga ega. Ichki sekretsia bezlarining hammasi birga qo'shilgan holda organizmning



endokrin sistemasini tashkil etadi. Bu bezlar odam tanasining turli qismlarida joylashgan bo'lsa ham, ularning funksiyasi bir-biriga chambarchas bog'liq. Shuning uchun odam organizmining endokrin sistemasini orkestrga o'xshatish mumkin, ya'ni har qaysi bezning ish faoliyati boshqa bezlarning funksiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu bog'liqlikni gipofiz bezi boshqaradi, ya'ni uni «orkestr»ning dirijyoriga o'xshatish mumkin.

Gipofiz bezi. Bu no'xatsimon, massasi 0,5-0,6 g ga teng bo'lib, bosh miyaning ostki sohasida, kalla suyagining turk egarchasi deb atalgan qismida joylashgan. Gipofiz uch bo'lakdan iborat: oldingi, oraliq va orqa bo'laklar. Gipofizning oldingi bo'lagidan olti xil: somatotrop, adrenokortikotrop, tireotrop, gonodotrop, laktotrop, lyuteinlovchi gormonlar ajraladi. Somatotrop gormon (STG) bolalar va o'smirlarning o'sishini, rivojlanishini, organizmda oqsillar sintezlanishini boshqaradi. Ba'zi sabablarga ko'ra bolalar va o'smirlarda bu gormon ko'p ishlab chiqarilsa, bo'y normadan ortiq o'sib ketadi. Bu holatga gigantizm, bun day odam esa gigant deb ataladi. Agar bu gormon kamroq ishlab chiqarilsa, bo'y o'sishi sekinlashadi, bunday holga nanizm deyiladi. Bunday bo'yi past odam gipofizar pakana deyiladi. Ularning bo'yi past bo'lsa ham aqliy faoliyati normal bo'ladi. Bo'y o'sishi to'xtagan katta odamlarda somatotrop gormoni ko'p ishlab chiqarilsa, akromegaliya kasalligi sodir bo'ladi. Bunda odamning burni, labi, iyagi, tili, qo'l va oyoq panjalarining hajmi kattalashadi. Adrenokortikotrop gormon buyrak usti bezining ishini bosh Tireotrop gormon qalqonsimon bezning ishini, ya'ni undan tiroksin gormoni ishlab chiqarilishini boshqaradi.

Gonadotrop gormon erkaklar va ayollarning jinsiy bezlari funksiyasini boshqaradi, o'smirlarda esa balog'atga yetish belgilari paydo bo'lishida ishtirok etadi. Laktotrop gormon ayollarda sut bezlarining funksiyasini bosh qaradi. Lyuteinlovchi gormon homilador ayollarda homilaning normal rivojlanishini boshqaradi. Gipofizning oraliq bo'lagidan intermedin gormoni ajraladi. U terida pigment hosil bo'lishini boshqaradi.

Gipofizning orqa bo'lagidan ikkita gormon ajraladi (oksitotsin va vazopressin). Oksitotsin gormoni homilador ayollarda bachadon Ihuskullarining qisqarishini kuchaytirib, tug'ish jarayonini osonlashtiradi. Vazopressin, ya'ni antidiuretik gormon (ADG) organizmda suv almashinuvini boshqaradi, ya'ni u buyrakning egri-bugri kalavasimon kanalchalarida birlamchi siydikning 98,5-99% i qonga qayta so'rilishini (reabsorbsiya jarayonini) boshqaradi. Bu gormon kam hosil bo'lsa, buyrak kanalchalarida birlamchi siydikning qonga so'rilish jarayoni buziladi. Natijada qandsiz diabet kasalligi sodir bo'ladi. Bu kasallikda odam ko'p suv iste'mol



qiladi va ko'p siydik ajratadi (bir kecha-kunduzda 5-10 l va undan ko'p). Shuni alohida ta'kidlash kerakki, gipofiz organizmdagi barcha ichki sekretiya bezlarining ishini tartibga soluvchi hukmron bez bo'lishi bilan birga, uning funksiyasi markaziy nerv sistemasi tomonidan, ya'ni oraliq miyada joylashgan gipotalamusdan ajraladigan neyrogormonlar orqali boshqariladi.

Epifiz bezi. Epifiz bosh miyaning asosida, ya'ni o'rta miya sohasida joylashgan bo'lib, uning massasi 0,2 g. Unda melatonin gormoni ishlab chiqariladi. Bu gormon gipofizning oraliq bo'lagidan ajraladigan intermidin gormoni singari, odam organizmida pigment almashinuvini boshqarishda ishtirok etadi. Bundan tashqari, epifizdan ajraladigan gormon gipofizning gonadotrop funksiyasini tormozlab, bolada vaqtdan ilgari balog'atga yetish jarayonini susaytiradi.

Epifizning funksiyasi bola 7 yoshga kirguncha kuchayib boradi, undan keyin uning faoliyati asta-sekin pasayib, balog'atga yetish davri oldidan butunlay to'xtaydi. Agar bu bezning funksiyasi oldinroq pasaysa, gipofizning gonadotrop funksiyasi kuchayib ketib, bolada vaqtdan ilgari balog'atga yetish belgilari paydo bo'ladi. qaradi, ya'ni kortikosteroid gormon ishlab chiqarilishini tartibga soladi.

Qalqonsimon bez. Bu bez bo'yinning oldingi qismida joylashgan bo'lib, hiqildoqni oldingi va yon tomonlaridan yopib turadi. Uning massasi chaqaloqda 1 g, 5-10 yoshli bolalarda 10 g, kattalarda 25-30 g gacha bo'ladi. Qalqonsimon bez tiroksin gormonini ishlab chiqaradi. Tiroksinning 65% dan ko'prog'i yod moddasidan iborat. Bu gormon organizmda moddalar almashinuvi jarayoni normal o'tishida muhim rol o'ynaydi. U yurak ishining gumoral yo'l bilan boshqarilishida ishtirok etadi. Tiroksin bolalarning o'sishi va rivojlanishida, nerv sistemasi funksiyasining normal takomillashuvida katta ahamiyatga ega.

Qalqonsimon bez funksiyasining susayishi gipotireoz deb ataladi. U yosh bolalarda ham, kattalarda ham og'ir kasallikka sabab bo'ladi. Gipotireoz, ya'ni qalqonsimon bez funksiyasining pasayishi bola tug'ilgandan keyin turli yoshlarda va, hatto, katta odamda ham ayrim sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Bunday odamda terining quruqlashganligi, ich qotishi, hatto issiq vaqtda ham sovqotish, doimo bo'shashganlik, kunduzlari ham uyqusirash kabi belgilarni aniqlash mumkin. Kasallikning og'ir ko'rinishlarida bemorning tanasi shishadi, aqliy faoliyati zaiflashadi, ya'ni esda saqlash, o'zlashtirish qobiliyati pasayadi. Bolalar va kattalarda kasallikning yuqorida qayd etilgan belgilari sezilsa, endokrinolog shifokorga murojaat etish zarur.



Endemik buqoq. Ba'zi joylarda, ayniqsa, buloq suvidan foydalaniladigan joylarda suv va tuproq tarkibida yod moddasi kam bo'ladi. Shuning uchun bu joylarda yashovchi aholi o'rtasida endemik buqoq ko'p uchraydi. Bu kasallikda qalqonsimon bezning hajmi kattalashib, bo'yinning oldingi qismida shish (buqoq) hosil bo'ladi.



XONA O'SIMLIKLARIGA EKALOGIK OMILLARNING TA'SIRINI O'RGANISH BO'YICHA BIOLOGIK TAJRIBA VA KUZATISHLAR O'TKAZISH

Asasiy qism: Tadqiqot ob'yekti tajriba o'tkaziladigan sharoit va tadqiqotni qilishdan maqsad.

Kirish: Xona o'simliklarini o'rganishdan oldin ularni o'sish mexanizmi va fiziologiyasini o'rganish zarur. O'simliklarni oyekti bu yashil o'simliklar sanaladi qusyosh nuridan energiya manbai sifatida foydalanishi va uni organik birikmalarning kimyoviy energiyasiga aylantirib berishi boshqa organizmlardan farq qiladi.

Xona o'simliklarini ekalogiyaga ta'siri odatda xona o'simliklari ham xona havosidagi gazlarni yutadi, lekin ular samara bermaydi. Odatdagi kattalikdagi xona havosida yig'ilib qolgan zaharli farmaldegid gazini yutishi uchun o'sha xonada 20dan ortiq o'simlik bo'lishi kerak.

*1.1 Xona o'simliklarda kechadigan fiziologik jarayonlar.

Xona o'simliklar fiziologiyasi rivojlanishiga maxsus qurilmalar-fitotronlarning yaratilishi katta ahamiyatga ega. Bunday ishlar o'simliklarni iqlimlashtirish, intraduksiya qilish, daragaylash, navlarni mintaqalarga qarab joylashtirish, turli xil agrotexnik tadbirlar: o'g'itlash sun'iy sug'orish kabi muhim masalalarni hal qilishga imkon beradi.

1727-yilda ingliz olimi S.Geyls o'simlik to'qimalari bo'ylab suv va mineral moddalarning harakatini aniqladi. Ingliz olimi J.Pristli yashil o'simliklar hayot faoliyati tufayli buzilgan havo tozalanishi hayvonlarning hayot kechirishi, yonish sodir bo'lishini aniqladi. XX asirning ikkinchi yarmida fiziologik jarayonlarni boshqarishda fitoxromlar qatnashishi, ular xlorofil hosil qilishda ishtirok etuvchi fermentlarning biosintezida induktorlik vazifasini bajarishi, xloroplastlar va fotosintetik apparatning shakillanishida muhim ahamiyatga ega ekankligi isbotlandi.

*1.2 Xona o'simligini ekalogiyaga ta'sirini o'rganish

Ekalogik omillar-atrof muhitning organizmlar faoliyatiga o'ziga xos ta'sir etuvchi ma'lum sharoitlar va elementlar majmui. Tirik organizmlarga ta'sir etuvchi muhitning har qanday bo'laklari ekalogik omillar deyiladi. Muhit-quruqlik, suv, havo va yer osti boyliklaridan iborat. Tashqi muhit tushunchasidan tashqari yashash sharoitlari degan tushuncha ham mavjud bo'lib, bu tushunshaga organimning yashashi uchun zarur bo'lgan elementlar yoki yorug'lik, issiqlik, suv, oziqlanish va shu kabilar kiradi. 1950-yilda D.N.kashkarov muhit omillarini 3 guruh iqlim, edafik



va biotikga bo'ladi, Keyinchalik 1950-yilda Alyoxin ekalogik omillarni iqlim, edafik orografik, biotik, antropogen va tarixiy guruhlarga ajratib o'rganishni taklif qiladi.

*1.3 Xona o'simligidan yangi navini o'rganish va inson hayotidagi ahamiyati.

Xonadagi havoni zararli hisoblangan gazlar – xlorofim va benzoldan tozalovchi tillarang epipremnum deb nomlanuvchi xona o'simligini transgen navini yaratish ustida ish olib borilmoqda. Xona havosida ko'pincha havoda uchib yuruvchi formaldegid, benzol, xloroform kabi turli organik moddalar zaharli bo'ladi. Ular havoda ovqat tayyorlash, chekish kabi jarayonlar natijasida ajralib chiqadi. Bu o'simlikni havoni tozalash, erkin kislorodga boyitishdir.

*Tadqiqotning dolzarbligi

Xozirgi vaqtda bizning vazifamiz ko'proq kislorod ajratadigan, havoni namlab turuvchi, zaharli toksinlardan tolovchi gullarni ko'paytirishdir. Huddi shu kabi gullarga o'rgimchaksimon o'simlik: allergiya rivojlanishini kamaytirishga yordam beradi va chang tufayli paydo bo'lgan tumovdan xalos qiladi. Uning barglari allergenlarni o'zlashtirishga qodir va ikki kun ichida xonani 90 foiz toksinlardan tozalaydi. Tillarang sssindapus havoni benzoldan tozalaydi. O'simlikni keng barglari bu moddani katta miqdorda ham "o'zlashtira" olish hususiyatiga ega. Benjamin fikusi-havoni eng yaxshi tozalovchi o'simliklardan ikkinchi o'rinda turadi. Changni o'ziga oxangrabodek tortib oladi.

Xulosa

Mening ilmiy ish qilishimdan maqsad shuki, xona gullarini ekalogiyaga ta'sirini o'rganish va ular ustida tajribalar olib borib tunda ham kislorod ajhratuvchi va havoni zaharli gazlardan tozalaydigan navlarni yaratishdir.



PERIFERIK NERV TIZIMI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR

Eshlov Diyorbek Ikromovich

Toshkent davlat stomatologiya instituti

Davolash ishi fakulteti

+998939360406

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada insonlarda xotiraning ahamiyati, ularning xususiyatlari, unga ta'sir qiladigan, tez-tez uchraydigan kasalliklar va ularning oldini olish haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'z: *xotira, medikamentoz, surunkali stress, sindrom, altsgeymer, apraksiya, asab tizimi, chekish, giyohvandlik, jismoniy va aqliy zo'riqish,*

KIRISH

Xotira – bu aqlning asosiy jihati. Bu bizga o'tmish haqida o'ylash va kelajakni rejalashtirish qobiliyatini beradi. Xotira faoliyatida shaxsning g'oyaviy yo'nalishi katta o'rin egallaydi. Bu yo'nalish uning faoliyatida hayot sharoiti ta'sirida shakllantiradi. Kishi o'zining shufaoliyati uchun muhim voqea-hodisalarni eslab qolsa, kam ahamiyatga ega bo'lgan narsalar esda qoldiriladi va tezda unutiladi. E. G'. G'oziev tomonidan xotira tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi:

“Xotira atrof-muhitdagi voqelik (narsa)ni bevosita va bilvosita, ixtiyoriy va ixtiyorsiz ravishda, passiv va faol holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo'l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, unutish hamda tanish hissidan iborat psixik jarayon. Alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa barcha taassurotlarni ijobiy qayta ishlashga yo'naltirilgan mnemik faoliyatdir”. Shuni ta'kidlash joizki, keltirilgan mazkur ta'rif xotiraning murakkab, keng qamrovli jihatlarini to'la ta'kidlash imkoniyatiga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Xotira yo'qotilishi insoniyatning eng sirli kasalliklaridan biridir. Uning kelib chiqish sabablari hech kimga ma'lum emas. Xotira yo'qolishi kutilmaganda va astasekin to'liq yoki qisman yuz berishi mumkin. Biror kishi bir necha yillar oldin sodir bo'lgan voqealarni unutishi mumkin. Xotirani to'liq yo'qotsa, u o'zini, boshqalarni va unga oid bo'lgan narsani unutadi.

Hatto inson sekin astalik bilan ruhini ham yo'qotadi.



Ba'zi xotira bilan bog'liq kasalliklarda dastlab ruhiy o'lim keyin fiziologik o'limni boshdan kechiradi. Olimlarning ko'plab izlanishlariga qaramasdan, tuzalish samarasi ancha past.

Ammo mutaxassislar kasallikning ba'zi kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar:

1. Eng aniq sabablaridan biri miya shikastlanishi. Miya zarar ko'rgandan keyin, odam odatda unga qarshi bo'lgan voqealarni eslay olmaydi. Bunday holda vaqtinchalik xotirani yo'qotish mumkin. Bir necha soat ichida o'ziga kelishi mumkin, ammo jiddiy shikastlanishlarda xotira tiklanmasligi mumkin.

2. Miya yoki yurakdagi jarrohlik.

3. Miyaning infektsiyasi.

4. Ruhiy kasallikdan xotirani yo'qotish. Vaqti-vaqti bilan unutilgan bu kabi tartibsizliklarga duchor bo'lgan odamlar bor va ular ba'zi voqealarni yodga olishadi.

5. Stressli vaziyatda xotira yo'qolishi.

6. Miya saratoni, epilepsiya, ensefalit, zaharlanish kabi jiddiy kasallik.

7. Ko'pincha, xotira yo'qolishi sababi urishdir.

8. Elektroshok terapiyasi.

9. Behushlik.

10. Ko'p miqdorda spirtli ichimliklar iste'mol qiladigan odamlar vaqti-vaqti bilan xotira yo'qotishi mumkin.

11. Giyohvandlik. Biror kishi xotirani yo'qotishdan shikoyat qilsa, birinchi navbatda, u psixolog va narkalogiya bo'yicha mutaxassis tomonidan tekshirilishi kerak.

Ushbu mutaxassislar ruhiy kasalliklar yoki psixotrop ta'sirlar mavjudligini aniqlashlari kerak. Boshqa kasalliklarda bo'lgani kabi xotira yo'qolishi ham uning kelib chiqish sabablariga qarab belgilanadi. Yuqorida kasallikning kelib chiqish sabablari keltirib o'tilgan. Inson xotirasiga ta'sir qiluvchi turli xil keng tarqalgan kasalliklar mavjud.

MUHOAMA VA NATIJALAR

Parkinson kasalligi markaziy asab tizimining degenerativ buzilishidir va garchi xotira eng ko'p ta'sirlanadigan joylardan biri bo'lmasa ham, u yomonlashadi. Bunga substrat nigraga tegishli neyronlarning miyasi o'lishi sabab bo'ladi. Odatda, miyaning ushbu sohasidagi neyronlar dopamin deb nomlangan norotransmitter ishlab chiqaradi, uning vazifasi ushbu modda nigra va striatum o'rtasida signallarni berish uchun mas'ul bo'lgan kimyoviy xabarchi. Ushbu signallar tufayli bir xil va qasddan harakatlar paydo bo'ladi. Agar ushbu miya hududida neyronlarning o'limi



sodir bo'lsa, dopamin hosil bo'lmaydi va bu Parkinson kasalligining xarakterli alomatlari paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Dopamin ishlab chiqaradigan neyronlarning yo'qolishidan tashqari, ushbu kasallikda boshqa neurotransmitter bo'lgan norepinefrinni ishlab chiqarish uchun mas'ul bo'lgan asab uchlari yo'qoladi. Norepinefrin simpatik asab tizimida hosil bo'lgan kimyoviy xabarlar uchun javobgardir. Somatik asab tizimi organizmning ko'plab avtomatik funksiyalarini boshqaradi. Ushbu kasallik sekinlik bilan inson tanasida rivojlanib, oyoq qo'llarning harakatiga hattoki gapirishga ham to'sqinlik qiladi.

Altsgeymer kasalligi asta-sekin boshlanib, asta-sekin kognitiv ravishda yomonlashuvga olib keladigan asosiy neurodegenerativ kasallikdir. Ushbu kasallikka chalingan odam miyasining ayrim qismlari to'qimalarida mikroskopik o'zgarishlarga uchraydi va miya faoliyatining maqbul ishlashi uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan kimyoviy (norotransmitter) asetilxolinning progressiv va doimiy yo'qotilishini boshdan kechiradi. Atsetilxolinning vazifasi asab hujayralari (xolinergik zanjirlar) bilan aloqa qilishga imkon berishdir, bu faoliyat o'rganish, xotira va fikrlash bilan bog'liq ishlarda mavjud. Altsgeymer borligi uchun to'g'ridan-to'g'ri patologik testlarni topish oson ish emas, shuning uchun uni boshqa demans etiologiyasi chiqarib tashlanganida aniqlash mumkin. Altsgeymer - bu xotiraga ta'sir qiluvchi kasallik.

Eng xarakterli va keng tarqalgan alomatlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin: a) Qisqa muddatli xotiraning yo'qolishi: yangi ma'lumotlarni saqlab qolish qobiliyatiga ta'sir qiladi.

b) Uzoq muddatli xotirani yo'qotish: shaxsiy ma'lumotlarni eslay olmaslik

v) Belgining o'zgarishi: asabiylashish, tashabbus yetishmasligi, beparvolik yoki beparvolik.

d) Fazoviy imkoniyatlarni yo'qotish.

e) Afazi: shaxs uchun odatiy so'z boyligini yo'qotish va oddiy so'zlarni noto'g'ri tushunish.

f) Apraksiya: mushaklarning o'zi bilan nazorat etishmasligi.

g) Fikrlash qobiliyatidagi o'zgarishlar.

Uning oldini olish uchun sog'lom ovqatlanish va turmush tarziga nisbatan alohida e'tiborni saqlashdan tashqari, bilim faoliyatini rivojlantiruvchi mashqlarni bajarish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, korsakoff sindromi ham xotiraga ta'sir qiluvchi kasalliklardan biri. Korsakoff psixozisi sifatida ham tanilgan.



Ushbu sindrom alkogolni haddan tashqari va surunkali iste'mol qilishning sababi bo'lib, B1 vitamini (tiamin) yetishmasligining natijasidir. Buning sababi shundaki, spirtli ichimliklar ushbu vitaminning to'g'ri ichakka singishiga to'sqinlik qiladi va medial diensefalik mintaqaga zarar yetkazadi. Ushbu kasallikda topilgan ba'zi alomatlar:

a) Anterograd amneziyasi: bu yangi xotiralarni shakllantirish yoki saqlashda qiyinchilik tug'dirishi bilan tavsiflanadi.

b) Retrograd amneziya Anterograd amneziyasi tez-tez uchraydigan bo'lsa-da, ushbu boshqa turdagi amneziyadan aziyat chekish ehtimoli ham mavjud. Bu bemorning hayotidagi o'tmishdagi voqealarga kirish qiyinligi bilan ajralib turadi, garchi vaqt jihatidan unchalik uzoq emas, aksincha yaqinda sodir bo'lgan voqealar.

v) Ataksiya: bezovtalik va vosita kelishmovchiligi.

d) Gallyutsinatsiyalar.

e) Diareya va vazn yo'qotish.

f) Yurak va jigarda asoratlar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xotira inson hayotida muhim o'rin kasb etuvchi jarayondir, xotiraning yuqolishi insonning o'zligini yuqotilishi demakdir. Fiziologik va psixologik muammolar xotiraga salbiy ta'sir qilishini oldini olish kerak. Avvalo, xotira yo'qotilishining oldini olish uchun sog'lom turmush tarziga qat'iy rioya qilinishi kerak. Spirtli ichimliklar, giyohvand moddalardan voz kechish birinchi navbatda qilinishi kerak. Hamda har bir inson o'zining ovqatlanish tartibiga e'tibor berish lozim. Ushbu qoidalarga rioya qilinganda, kasal bo'lish xavfi minimal darajada bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umumiy psixologiya. E.G'oziyev. T, 1994.
2. Umumiy psixologiya. F.Xaydarov, N.Xalilova. T: 2010.
3. Umumiy psixologiya. V.Turakulov, Termiz, 2018. Амиркулович, Х. С. (2021). ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ТАСВИРИЙ САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. Scientific progress, 1(3).
4. Амиркулович, Х. У. (2021). ТАРИХ ДАРСЛАРИНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА МИНИАТЮРАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЙЎЛЛАРИ. Scientific progress, 1(3).
5. Хайдаров С. (2021). Ўзбекистон тарихини ўқитишда миллий миниатюрадан фойдаланиш (Бобурнома мисолида). Academic Research in Educational Sciences. 2 (7). 760-764.



SEZGI ORGANLARI VA UNING YOSHGA BOG'LIQ ANATOMIYASI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Sayyirva Lola

Toshkent Davlat stomatologiya instituti

Davolash ishi fakulteti

Anatomiya

Ilmiy rahbar: Xusanova.M.A

+998939360406

Annotatsiya. Ushbu maqola sezgi organlarida, shu jumladan ko'z, quloq, burun, til va terida kuzatiladigan yoshga bog'liq anatomik o'zgarishlarni o'rganadi. Yoshi bilan yuzaga keladigan tarkibiy o'zgarishlarni tushunish uchun keng qamrovli adabiyot tahlili o'tkaziladi. Usullar bo'limida ma'lumotlarni to'plash uchun ishlatiladigan tadqiqot yondashuvlari va natijalar bo'limida hissiy organlarning yoshga bog'liq anatomik o'zgarishlari bo'yicha topilmalar keltirilgan. Munozara bo'limi ushbu o'zgarishlarning hissiy funktsiyaga, hayot sifatiga va potentsial aralashuvlarga ta'sirini o'rganadi. Va nihoyat, xulosalar va takliflar yoshga bog'liq hissiy pasayishni boshqarish va umumiy farovonlikni yaxshilash haqida tushuncha beradi.

Kalit so'zlar: Yoshga bog'liq o'zgarishlar, sezgi organlari, anatomiya, ko'zlar, quloqlar, burun, til, teri, adabiyotlarni tahlil qilish, tadqiqot usullari, natijalar, munozaralar, xulosalar, takliflar.

Sezgi organlari dunyoni idrok etishimizni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Jismoniy shaxslar yoshi bilan bu organlar hissiy funktsiyaga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan turli xil tarkibiy o'zgarishlarga uchraydi. Ushbu maqola hissiy organlardagi yoshga bog'liq anatomik o'zgarishlarni chuqur tahlil qilish, umumiy salomatlik va farovonlikka ta'sirini yoritishga qaratilgan.

Adabiyot tahlili sezgi organlaridagi yoshga bog'liq o'zgarishlarni o'rganadigan tadqiqotlarga qaratilgan. Ko'zlar, quloqlar, burun, til va terida sodir bo'ladigan anatomik o'zgarishlarni har tomonlama tushunish uchun turli xil ilmiy jurnallar, maqolalar va tadqiqot ishlari ko'rib chiqiladi. Topilmalarning ishonchligi va asoslilikini ta'minlash uchun ushbu tadqiqotlarda qo'llaniladigan metodologiyalarga alohida e'tibor beriladi.



3. Baydjanov, B. (2021, March). COMPATIBILITY OF NEW RENAISSANCE PEDAGOGY AND JADID ENLIGHTENERS' VIEWS ON EDUCATION AND INFORMATION SECURITY. In Конференции.
4. Baydjanov, B. K. (2021). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATION COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. Theoretical & Applied Science, (7), 171-178.
5. Dilshodovich, I. S. (2021). Ways To Increase the Effectiveness of Physical Education Classes in Secondary Schools. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 2, 142-143.
6. Ismoilov, S. (2021). Developing A Valued Attitude Towards the Family in Students as A Topical Pedagogical Problem. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 3, 91-93.
7. Klochko V.E. Qadriyatlarni axloqiy tarbiya mexanizmi sifatida shaxslashtirish // Talaba shaxsining axloqiy asoslarini shakllantirish yo'llari. Muammolar. Metodologiya Tajriba: konferentsiya tezislari. Barnaul, 2007.
8. Lapin N.I. Qadriyatlar zamonaviy Rossiyaning ijtimoiy-madaniy evolyutsiyasining tarkibiy qismi sifatida // Socis. 1994. № 5
9. Maksudov, U. K. (2020). ISSUES OF NATIONAL VALUES AND SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF POSITIVE



PSYCHOLOGY. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 394-396).

10. Mitrikas A. Oila qiymat sifatida: Yevropa mamlakatlarida qiymat tanlashdagi o'zgarishlar va istiqbollari. - №1. -, 2003.

11. Problems of the effective use of irrigated land in Bukhara region and ways to improve them SNB O Khamidov, D Sh Yavmutov E3S Web of Conferences 431 (01056), EDP Sciences

12. DEVELOPMENT OF" GREEN ECONOMY" IN THE SECTORS OF THE ECONOMY AND ITS PROSPECTS SN Burxonov Academic research in educational sciences 3 (5), 1332-1337

13. Tuychieva, I. I. (2018). Mechanisms Ensuring Children's Thought Activity Development at Preschool Education Process. Eastern European Scientific Journal, (6).

14. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF PREPARING BOYS FOR FAMILY RELATIONSHIPS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

15. <https://fayllar.org/1-falsafiy-dunyoqarashning-oz-ozini-anglashdagi-rol-agar-fals.html?page=48>

20. <https://uz.hydroponicsbc.com/1546-family-values-in-the-life-of-every-person.html>

21. <https://uz.tierient.com/oilaviy-va-oilaviy-qadriyatlar/>



COREL DRAW DASTURIDA MATNLAR VA JADVALLAR BILAN ISHLASH

Rasulova Barchinoy
Maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada CorelDraw logotipni loyihalash, professional marketing risolasini yaratish yoki yorqin va jozibali plakat bo'ladimi, har qanday hajmdagi loyihalar ustida ishlashni ancha osonlashtiradi. Paket grafik dizayndagi turli xil muammolarni hal qilishda yuqori funktsionallikni, yuqori tezlikni, foydalanish qulayligini va mavjudligini birlashtiradi.

Kalit so'zlar: CorelDraw, vector, Freehand pick, Smear, Twirl, Attract, Repel, Pan, Connect, Style, OpenType

Аннотация: CorelDraw существенно упрощает работу над проектами любых масштабов, будь то разработка логотипа, создание профессионального маркетингового буклета или яркого и броского плаката. Пакет сочетает в себе высокую функциональность при решении самых различных задач в области графического дизайна, высокую скорость, простоту в использовании и доступность.

Ключевые слова: CorelDraw, вектор, растр, фрактал, Freehand pick, Smear, Twirl, Attract, Repel, Pan, Connect, Style, OpenType

Abstract: CorelDraw greatly simplifies the work on projects of any size, whether it's logo design, creation of professional marketing brochure or a bright and catchy poster. The package combines high functionality in solving the most diverse in the field of graphic design tasks, speed, ease of use and accessibility.

Keywords: CorelDraw, vector, raster, fractal, Freehand pick, Smear, Twirl, Attract, Repel, Pan, Connect, Style, OpenType

Kirish.

Hozirgi zamon mutaxisslardan faoliyat doirasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, informatika bo'yicha keng ko'lamdagi bilimlarga zamonaviy hisoblash texnikasi va information aloqa va kommunikatsiya tizimlari, orgtexnika vositalari va ulardan foydalanish borasida yetarli malakaga ega bo'lishi, hamda yangi information texnika va texnologiya asoslarini uning ertangi kuni, rivoji to'g'risidagi bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi shart. Zamonaviy hisoblash texnikalari va information texnologiyalarining kun sayin rivojlanib, jamiyatning esa, tobora informatsiyalashib borishi sababli, uzluksiz ta'lim tizimining o'rta va yuqori bosqichlariga informatika, ishlab chiqarish va boshqarish jarayonining kompyuterlashtirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar(AKT) talabalarning kelajakdagi faoliyatiga tayyorlashga ko'mak beradi. Hozirgi zamonda mehnat faoliyati



o'quvchilar qoniqish bilan ishlayotgan kompyuterlar, texnologiyalar, dasturlar va qurilmalar yordamida boshqariladi. AKT o'rganish va o'qitishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi. Inson multimediya ko'rgazma vositalari yordamida, o'quv ma'lumotlarini qabul qilganda sezgi a'zolari ishtirok etadi va u oson tushunadi. Multimediya ko'rgazma vositalari kompyuter animatsiyalari yordamida ham yaratiladi. Animatsiya obyektlar harakatini, immitatsiyasini namoyon etishga keng imkoniyat ochib beradi. O'quv ma'lumotlarini shartli grafik tasvirlar (sxemalar, bloksxemalar, diagrammalar, tarayektoriyalar) yordamida tushunishda animatsiyalardan foydalanish unumli hisoblaniladi.

O'zbekistonda o'qitish texnologiyalari zamonaviylashtirish, jadallashtirish rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlarga qaraganda yanada dolzarb ahamiyatga ega. Chunki hozirgi kunda o'zbek milliy ta'lim tizimining salohiyatli tizimli rivojlanishi yanada yuqori pog'onasiga ko'tarildi.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning tarkibida yuqori malakali mutaxassislarining roli benihoyat kattadir. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Ertangi kun yangicha fikrlay oladigan zamonaviy bilimga ega bo'lgan yuksak malakali mutaxassislarni talab etadi".

Respublikamiz mutaxassislar tayyorlashni davr talablari darajasida tashkil etishda yetarlicha ishlar olib borilayotganligiga qaramasdan, hozirgacha bir qator muammolar o'z yechimini topgani yo'q. Xususan, jahon andozalariga mos va raqobatbardosh, bilimli, malakali, kuchli mutaxassislarni tayyorlashga imkon beruvchi pedagogik shart – sharoitlarni yaratish, mazkur jarayonni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish, mutaxassislik fanlaridan kasbiy ta'lim va malakalarni shakllantiruvchi ilmiy – uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish kabi masalalarni shular qatoriga kiritish mumkin.

COREL DRAW dasturi imkoniyatlari bilan tanishish.

Yuqlangandan sung dastur ekranga «Xush kelibsiz COREL DRAW» mulokot oynasini chiqaradi va bir nechta variantlarni taqdim qiladi: yangi xujjat yaratish (GRAPHIC), oxirgi yaratilgan xujjatni ochish (Orep last edited), mavjud xujjatni ochish (Orep GRAPHIC), o'qitish tizimi (COREL TUTOR).

Yangi xujjatni yaratish uchun fayl (FILE) menyusida Yangi (NEW) komandasini bajariladi. Mavjud xujjatni ochish uchun fayl menyusida ochish (Oren) komandasi bajariladi.

COREL DRAW dasturi bir necha xujjatlarni bir vaqtda ochish imkoniyatiga ega, u xolda shu paytda kerak bo'lmagan xujjatlarni yopish kuzda tutilgan. Menyu Fayl (FILE) bo'limida yoping (Zakryt, Close) komandasi bajarilganda aktiv xujjat yopiladi. Dastur yuqlangandan so'ng ekranda paydo dastur oynasiga foydalanuvchining interfeysi deyiladi (User Interface). Interfeys inson va kompyuter orasida bog'lovchi bo'lib ishlash uchun panel, asboblari, muloqot oynasi va x.k larni taklif etadi. Foydalanuvchi interfeysiga saxifa, bosh menyu, xujjatlarni aks ettiruvchi ishchi oynalari xamda tasvirlarni muxarrirligini amalgam oshiruvchi



xar xil panellar tuplami. Oynaning markazidagi katta oq maydon ishchi ishchi xudud bo'lib xar bir xujjat aloxida - aloxida ochiladi.

Ekkranning tepa qismida bosh menyu bo'limlari quyidagicha nomlanadi:

- Fayl (File) • Muxarrir (Redaktirovanie, Edit)
- Ko'rinish (Prosmotr, View)
- Kampanovka (Layout)
- Boshqaruv (Upravleniya, Arrange)
- Effektlar (Effects)
- Nuqtaviy tasvir (Toch.izob, Vitmaps)
- Matn (Text)
- Servis (Tools)
- Oyna (Okno, Windows)
- Yordam (Pomosh, Help)

Bu komandalarning xar biri funktsional jixatdan yakinbulgan amallarni bajaradi, masalan: matn menyusi matn bilan ishlaydigan komandalardan iborat, effekt menyusi nuqtaviy va vektorli grafikani yaratadigan komandalar tuplamidan iborat.

Xossalar asboblari qatori (Rgoreggu Var)

Xossalar asboblari qatoridagi (Rgoreggu Var) maydonlar va tugmalar to'plami, ishlatilayotgan asbob yoki belgilangan ob'ekt turiga bog'liq xolda



Ko'rinishga ega bo'ladi, masalan, matn blokka olinganda xossalar katorida matn parametrlari aks etadi. COREL DRAW Ob'ektlar belgilanmagan xolatda xossalar qatorida (Rgoreggu Var) xujjatning umumiy parametrlari beriladi, masalan: varakning formati, joylashuvi va boshqalar.

Xolat qatori (Status Var)

Ishchi ekkranning pastki qismida xolat qatori (Status Var) joylashgan bo'lib turli xil xizmat ma'lumotlarini aks ettiradi: parametrlar, obvodka va ranglar, xarf parametrlari ajratilgan ob'ektlar xaqida ma'lumot va aktiv asboblari xaqida ma'lumot. Bu qatorning, kurinishi xolati va tarkibini o'zgartirish mumkin.

COREL DRAW dasturi vektorli tasvirlarni yaratishda turli vositalarni qo'llaydi - ingichka chiziqlar, patsimon shtrixlar. Sho'nga karamay vektorli grafikaning ish usuli, "ko'lda" chizishdan ancha farq qiladi. Shuning uchun vektorli konturni yaratishni va taxrirlashni tasavvur qila olish kerak.

Shu maqsadda COREL DRAW dasturi geometrik figuralarni yaratish (tugri turtburchak, kupburchak, ellips, spiral) uchun muljalgan asboblarga ega, bundan tashqari "erkin chizish" asboblari (pero, kalligrafik, pero). Gradientli setka (Mesh



Fill), vektorli grafikaning asosiy instrumenta bo'lgan Bez'e — egri chiziqlari, Bez'e asbobi (Vezier).

Vektorli konturlarni tulari taxrirlash qanday asboblar orqali yaratilganligadan qattiy nazar bir xil usulda bajariladi: Forma (Share) asbobi yordamida, redaktor maxsus paneli (Node Edit) tarmog'i orqali yoki uni almashtiruvchi xossalar asboblar qatori (Rgoregtu Var).

Corel DRAW grafik muharriridagi asosiy dasturlar

Corel DRAW 9 quyidagicha qismlardan tashkil topgan;

- Dastur fayllari (Program Files)
- Ma'lumot beruvchi fayllar (Help files)
- O'rgatuvchi dasturlar va namunalar (Tutors and Examples)
- Konturlar va zalivkalar (Outlines & Fills)
- Makroslar (Scripts) va zagotovkalar (Presets)

Corel PHOTO - PAINTS quyidagi qismlardan tashkil topgan;

- Dastur fayllari (Program Files)
- Ma'lumot beruvchi fayllar (Help files)
- O'rgatuvchi dasturlar va namunalar (Tutors and Examples)
- Makroslar (Scripts) va zagotovkalar (Presets)

Filtrlar

Corel DRAW grafik muharririda quyidagicha filtrlar mavjud:

•Rastr formatlari filtrlari: CPT, TIF, PCX, BMP, GIF, JPG, PCD, PSD, MAC, PP5, TGA, SCT, FPX, PNG, RAW, DCS, WI, IMG, RIFF Painter 5.

•Vektor formatlari filtrlari: WPG, AI, DXF, CGM, CMX, CDR, CPX, CDX, EPS, EMF, HPGL/PLT, PCT, Interpreter Past Scscript, WMF, PDF, PSF, DWG, 3DMF, VSD, TTF.


- ❖ Animatsiya fayllarining barcha filtrlari.
- ❖ Tekst fayllari filtrlari: WP8, DOC, RTF, TXT, XLS, WQ/WB, WK.
- ❖ Internet formatlarining barcha filtrlari. Shuningdek:
- ❖ 66 ta standart shrift.
- ❖ Corel Uninstall.
- ❖ Readme fayllari mavjud.



Corel DRAW 9 grafik muharririning kompakt-diskida bir qancha yordamchi dasturlar mavjud:

- Adobe Acrobat Reader 4
- Canto Simulus Deskbop
- Apple Qvik time 3.0
- Misrosoft internet explorer 5

Satr boshi qatoridan va nashr varag`idan boshqa barcha yuzalar ishchi soha deb yuritiladi. Oynaning chap burchagida grafika paneli, o`ng tomonida esa ranglar palitrasi joylashgan. Oynaning yuqoridagi chekkasidan ketma-ket holda satr boshi, menyu satri, standart instrumentlar paneli va atributlar paneli joylashgan. Oynaning pastki qismida gorizontall aylantirish yo`lchasi, undan pastda esa holat satri joylashgan. Oynaning markazida nashr varag`i joylashgan. Soyali ramka esa varaq chegarasi hisoblanadi. Varaqni o`rab turgan oq maydon esa hujjat oynasining ishchi maydoni deyiladi.



Xulosa

Bugungi kunda Informatika va axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi jadal rivojlanmoqda, shu bilan birgalikda kompyuter tarmoqlari ham. Biz yoshlar o'zimiz va o'zimizdan keyingi avlodlarga Informatika va axborot kommunikatsiya texnologiyalari sirlarini chuqurroq o'rganishlari uchun yordam berishimiz kerak.

Men bu kurs ishini yozish davomida o'z bilim va ko'nikmalarimni oshirib oldim. CorelDRAW dasturining imkoniyatlari bilan tanishib chiqib, yangi imkoniyatlarini o'rganib oldim.

Corel Draw dasturi vektor grafikasi dasturlari ichida eng ko'zga ko'ringan bo'lib, u shu sohadagi barcha imkoniyatlarga ega muharrirlardan biri hisoblanadi. Corel Draw dasturi vektor tasvirlarni rastri tasvirlarga o'tkazish imkoniyatiga ega. Corel Draw dasturi verstkali dasturlarga tegishli emas, verstkali dasturlarda ko'p sahifali hujjatlar bilan ishlash imkoniyatlari mavjud.

Corel Draw dasturida ko'p sahifali hujjatlar bilan ishlanadi va unda 999 sahifali hujjatlar bilan ishlash imkoniyati bor. Qoplagan funksiyalarining yetishmasligi verskachining ishini yengillashtiradi, katta hajmdagi hujjatlarni bir nechta sahifaga joylashtiradi, bunday hujjatlarga — reklama bukletlari, kichkina hajmli hujjat, prays-listlar, kichkina roshuralar va hokazolar tayyorlanadi.



Corel Draw vektor dasturida obektning shaklini Forma (Shape) asbob yordamida o'zgartirsa bo'ladi, ko'pchilik hollarda obektning har bir tayanch nuqtasi bilan ishlashga to'g'ri keladi, bu esa, qiyinchilik tug'diradi.

Corel Draw dasturining asosiy maqsadi rangli effektlar yaratish bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Makarova N.V. Informatika, Toshkent, Talqin, 2005 (Darslik)
2. Sattorov. "Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari". T, 2007y. (O'quv qo'llanma)
3. Панасенко С. «Защита электронных документов», Москва, ФиС, 2000 г.
4. Электронные ресурсы: www.gov.uz, www.referat.uz, www.Google.uz,
5. <http://www.interface.ru/>
6. <https://sites.google.com/>
7. <http://www.videokurslar>



PONASIMON VA CHAKKA SUYAKLARI TUZILISHI YOSHGA OID XUSUSIYATLARI. CHAKKA SUYAGINING KANALLARI

Rahmatov Azizillo Akmaljon O'g'li

Ilmiy rahbari: Kafedra katta o'qituvchisi B.Xaydarova

Kafedra anatomiya bosh bo'yin anatomiyasi

Toshkent Davlat Stomatologiya institutining

Bolalar Stomatologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

+998976641024

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada uyqu kanali (canalis caroticus) orqali ichki uyqu arteriyasi o'tadi. U piramidaning pastki yuzasidagi uyqu kanalning tashqi teshigidan boshlanib, yuqoriga va oldinga yo'naladi va uyqu kanalining ichki teshigi orqali kalla ichiga kiradi. Mushak-nay kanali (canalis musculotubarius) piramidaning oldingi chekkasi bilan palla qismi o'rtasidagi burchakdan boshlanib, orqaga va yon tomonga yo'naladi, uni bo'ylamasiga gorizontall joylashgan to'siq ikki yarim kanalga ajratadi. Ustki nog'ora pardani taranglovchi mushak yarim kanalchasida (semicanalis muscoli tensoris tympani) shu nomli mushak yotadi. Pastki eshituv nayining yarim kanalchasi (semicanalis tubae auditivae) eshituv nayining suyak qismini hosil qiladi. Ikkala yarim kanal ham nog'ora bo'shlig'ining oldingi devoriga ochiladi.

KIRISH

Yuz nervi kanali (canalis nervi facialis) ichki eshituv yo'lagining tubidan boshlanib, orqadan oldinga gorizontall yo'naladi. Katta toshsimon nerv tirqishi sohasida to'g'ri burchak shaklida bukilib tizzacha hosil qiladi, keyin orqaga va lateral davom etib, nog'ora bo'shlig'ini aylanib pastga vertikal tushadi va piramidaning pastki yuzasidagi bigiz-so'rgichsimon teshikda tugaydi. Kanal orqali shu nomli nerv o'tadi. Uyqu-nog'ora kanalchalari (canaliculi caroticotympanici) uyqu kanalining orqa devoridan uning tashqi teshigi sohasidan boshlanib nog'ora bo'shlig'iga ochiladi. Undan shu nomdagi arteriya va nervlar o'tadi. Nog'ora tori kanali (canaliculus chordae tympani) yuz nervi kanalidan bigiz-so'rg'ichsimon teshik ustidan boshlanib, oldinga yo'naladi va nog'ora bo'shlig'iga ochiladi. Undan nog'ora tori o'tadi. Nog'ora naychasi (canaliculus tympanicus) piramidaning pastki yuzasidagi tosh chuqurchaning tubidan boshlanib, yuqoriga ko'tariladi. Nog'ora bo'shlig'ining pastki devorini teshib olib, unga kiradi. Undan til-halqum nervining nog'ora tarmog'i o'tadi. So'rg'ichsimon kanal (canaliculus mastoideus) bo'yinturuq



chuqurchasining tubidan boshlanib, nog'ora-so'rg'ichsimon tirqishda yakunlanadi, undan adashgan nervning quloq tarmog'i o'tadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Ustki jag' suyagi (maxilla) juft suyak bo'lib, birmuncha murakkab tuzilgan. Uning tanasi va to'rtta o'sig'i bor. Ustki jag' suyagining tanasi (corpus maxillae) ichida havo saqlaydigan ustki jag' (gaymor) bo'shlig'i (sinus maxillaris) bo'lib, u burun bo'shlig'iga ustki jag' bo'shlig'ining yorig'i (hiatus maxillaris) orqali ochiladi.

Tanasida to'rtta: oldingi, ko'z kosasiga qaragan, burun va chakka osti yuzasi tafovut qilinadi. Oldingi yuzasi (facies anterior) botiq bo'lib, ko'z kosasiga qaragan yuzasidan ko'z kosasining pastki chekkasi (margo infraorbitale) bilan ajralib turadi. Uning ostida qon tomir va nervlar o'tadigan ko'z kosasi ostidagi teshik (foramen infraorbitalis) bor. Undan pastroqda qoziq tish chuqurchasi (fossa canina) joylashgan. Oldingi yuzani medial tomondan chegaralaydigan burun kemtigi (incisura nasalis) burunning oldingi o'tkir qirrasini (spina nasalis anterior) bo'lib tugaydi. Ko'z kosasiga qaragan yuza (facies orbitalis) bir oz botiqroq uchburchak shakldagi silliq yuza bo'lib, ko'z kosasining pastki devorini tashkil qiladi. Bu yuzaning medial chekkasi ko'z yoshi suyagi, g'alvirsimon suyakning ko'z kosasi plastinkasi va tanglay suyagining ko'z kosasi o'sig'i bilan birikadi. Uning ko'z kosasining ostki yorig'ini (iissura orbitalis inferior) chegaralaydigan orqa erkin chekkasidan ko'z kosasining ostki egati (sulcus infraorbitale) boshlanadi. Oldinda u shu nomdagi kanalga (canalis infraorbitalis) o'tib, ustki jag' suyagining oldingi yuzasiga ko'z kosasi ostidagi teshik (foramen infraorbitalis) bo'lib ochiladi. Chakka osti yuzasi (facies infratemporalis) chakka osti va qanot-tanglay chuqurchalarini hosil qilishda ishtirok etadi. Uning oldingi yuzasidan yonoq o'sig'ining asosi ajratib turadi. Bu yuzada ustki jag' suyagining do'mboqchasi (tuber maxillae) bor bo'lib, unda ustki jag'ning tish katakchalari teshiklari (foramina alveolaria) bor. Bu teshiklar suyak ichiga tish katakchalari kanallari (canales alveolares) bo'lib ochiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Peshona o'sig'i (processus frontalis) tananing oldingi va ko'z kosasiga qaragan yuzalari o'rtasidan boshlanib, yuqori uchi peshona suyagining burun qismiga yetib boradi. Uning ichki yuzasida o'rta burun chig'anog'i birikadigan g'alvirsimon suyak qirrasini (crista ethmoidalis) bor. Yonoq o'sig'i (processus zygomaticus) suyakning yuqorigi lateral qismidan boshlanib yonoq suyagi bilan birlashadi.

Alveolar o'siq (processus alveolaris) suyak tanasidan pastga chiqib oldinga qarab qavargan plastinkadir. O'siqning pastki chekkasi alveolar yoyini (arcus



alveolaris) hosil qiladi. Unda tish alveolalari (alveoli dentales) va ulaming o'rtasida alveolalararo to'siqlar (septa interalveolaria), shuningdek tish ildizlari orasidagi to'siqlar (septa interradicularia) bor. Alveolar o'siqning tashqi yuzasida esa alveola tepaliklari (juga alveolaria) bor. Tanglay o'sig'i (processus palatinus) suyakning burun yuzasidan boshlanib, gorizontall joylashadi. U qarama-qarshi o'siq bilan birikib, qattiq tanglayni hosil qilishda qatnashadi.

O'siqning medial erkin chekkasida yuqoriga ko'tarilgan bumn qirradi (crista nasalis) ko'rinadi, u dimog' suyagining pastki chekkasi bilan birikadi. O'siqning ustki yuzasi silliq bo'lib, bumn bo'shlig'ining pastki devorini hosil qiladi. Pastki yuzasida esa bo'ylama tanglay egatlari (sulci palatini), o'rta chokning oldingi uchida kurak tishlari sohasidagi kanal (canalis incisivi) teshigi bor.

O'siqning orqa chekkasi tanglay suyagining gorizontall plastinkasi bilan birikadi. Yangi tug'ilgan chaqaloq ustki jag' suyagining tanasi va o'sig'i tafovut qilinadi. Suyak tanasi yaxshi takomillashmagan, bo'yi past bo'lgani uchun ko'z kosasining pastki qirradi alveolar o'siqqa yaqin. Peshona, yonoq, tanglay o'siqlari yaxshi rivojlanmagan bo'lib, alveolar o'siq arang bilingan. Emizikli davrda suyak ancha tez o'sadi. Alveolar o'siqning tashqi tomonida alveola tepaliklari, o'siq ichida esa tish alveolalari va ular o'rtasida alveolalararo to'siqlar paydo bo'ladi.

Erta bolalik davrida ustki jag' juda tez o'sib, tanasi kattalashadi. Bolalikning ikkinchi davrida tishlar almashinuvidan so'ng suyak tanasi yanada kattalashadi. Uning tashqi relyefi tugallanib, katta odamlamikiga o'xshab qoladi. Balogat davrida esa uning jinsiy va shaxsiy xususiyatlari paydo bo'ladi. Yonoq suyagi (os zygomaticum) yuz suyaklari orasida eng qattig'i bo'lib, kallaning miya va yuz qismi suyaklarini (peshona, chakka va ustki jag 4) bir-biriga qo'shib turadi.

Yonoq suyagining joylashgan bo'lib qarab uchta yuzasi: lateral, chakka va ko'z kosasiga qaragan va ikkita o'sig'i (peshona, chakka) tafovut qilinadi. Lateral yuzasi (facies lateralis) noto'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, lateral tomonga va oldinga qarab biroz qavargan. Unda yonoqyuz teshigi (foramen zygomaticofaciale) bor.

Chakka yuzasi (facies temporalis) silliq, chakka osti chuqurchasining oldingi devorini hosil qiladi. Unda yonoq-chakka teshigi (foramen zygomaticotemporale) bor. Ko'z kosasiga qaragan yuzasi (facies orbitalis) ko'z kosasining lateral-pastki devorini va ko'z kosasining pastki chekkasining lateral qismini hosil qilishda qatnashadi. Bu yuzada joylashgan yonoq-ko'z kosasi teshigi (foramen zygomaticoorbitale) suyak ichida ikkiga bo'linib, lateral yuzasiga yonoq-yuz teshigi bilan, chakka yuzasiga esa yonoq-chakka teshigi bilan ochiladi.



Peshona o'sig'i (processus frontalis) yuqoriga yo'nalib, peshona suyagining yonoq o'simtasi va ponasimon suyakning katta qanoti bilan birikadi. Chakka o'sig'i (processus temporalis) orqaga yo'nalib, chakka suyagi yonoq o'simtasi bilan qo'shilib, yonoq ravog'ini (arcus zygomaticus) hosil qiladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqning yonoq suyagi suyak tuzilishiga ega bo'lib, suyakka xos bo'lgan yuza va o'siqlarga ega. Uning peshona o'sig'i chakka o'sig'idan ikki barobor keng. Bola hayoti davomida yonoq suyagi o'sa borib bolalikning davrida katta odamlamikiga o'xshaydi. Balog'at davrida uning shaxsiy va jinsiy tafovutlari vujudga keladi.

XULOSA

Ponasimon o'siq (processus sphenoidalis) orqaga va medial tomonga yo'naladi va ponasimon suyak tanasining pastki yuzasiga birikadi. Ko'z kosasi o'sig'i bilan ponasimon o'siq o'rtasida pona - tanglay o'ymasi (incisura sphenopalatina), ponasimon suyak bilan qo'shilganida ponasimon-tanglay teshigini (foramen sphenopalatinum) hosil qiladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq tanglay suyagida kattalarga xos bo'lgan hamma qismlar:

ko'z kosasi, ponasimon, piramida o'siqlari perpendikular va gorizontallastinkalari mavjud. Perpendikular plastinkasi kalta va keng bo'lgani uchun shakli kvadratga o'xshaydi. Gorizontallastinkasi ingichka va qalin, o'siqlari yaxshirivojlangan. Erta bolalik davrida perpendikular plastinka bo'yiga o'sadi. Uning ichki yuzasida chig'anoq qirrasiyaxshibilinadi, tashqi tomonidagi katta tanglay egati chuqurlashadi. Suyak keyingi davrlarda bir tekis o'sib bolalikning II davri so'ngida tuzilishi jihatidan kattalamikiga o'xshab qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmedov Akmal. Odam anatomiyasi. T.:«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2005-y.
2. Ahmedov A., Rasulov X. Odam anatomiyasi, bolalar anatomiyasi asoslari bilan. T.:«Iqtisod-moliya» nashriyoti, 2013-y.
3. Ахмедов А.Г., Расулов Х.А.. Атлас анатомии человека I -том.Т.: Издательство-полиграфический творческий дом имени Гафура Гуляма 2011, II-том.Т.: Издательство-полиграфический творческий дом имени Гафура Гуляма 2016 г.



**“YANGI O’ZBEKISTON TARAQQIYOTI” STRATEGIYASIDA
RESPUBLIKANI KELGUSIDA RIVOJLANTIRISHNING
MAQSAD VA VAZIFALARI**

ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ В
СТРАТЕГИИ “РАЗВИТИЕ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА”

GOALS AND OBJECTIVES OF THE FUTURE DEVELOPMENT OF THE
REPUBLIC IN THE STRATEGY “DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN”

Raximova Shaxnoza Xamzayevna

Osiyo Xalqaro Universiteti MM1-IQ - 23-guruh magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasida bayon etilgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning maqsad va vazifalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ushbu strategik hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi Farmoni bilan tasdiqlangan va kelgusi besh yil davomida mamlakatni isloh qilish va modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Kalit so'zlar: rivojlanish strategiyasi, rivojlanish maqsadlari, islohotlar, yangi O'zbekiston, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy siyosat.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу целей и задач дальнейшего развития Республики Узбекистан, заявленных в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы. Этот стратегический документ был утверждён Указом Президента РУз от 28 января 2022 года и определяет ключевые направления реформирования и модернизации страны на ближайшие пять лет.

Ключевые слова: Стратегия развития, цели развития, реформы, Новый Узбекистан, экономический рост, социальная политика.

Abstract. This article is devoted to the analysis of the goals and objectives of the further development of the Republic of Uzbekistan, stated in the Development Strategy of the New Uzbekistan for 2022-2026. This strategic document was approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 and defines the key areas of reform and modernization of the country for the next five years.

Keywords: Development strategy, development goals, reforms, New Uzbekistan, economic growth, social policy.



KIRISH

2022-yil yanvar oyi oxirida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasini – mamlakatni keyingi besh yil davomida rivojlantirishning asosiy maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo'nalishlarini belgilovchi asosiy strategik hujjatni tasdiqladi [1]. Ushbu hujjat 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha amalga oshirilgan harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi bo'lib, ichki va tashqi siyosatning eng muhim jihatlari bo'yicha davlatni yanada isloh qilish va modernizatsiya qilish rejalarini belgilab beradi.

Yangi O'zbekistonning rivojlanish strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni o'rganishning dolzarbligi ushbu hujjatning o'rta muddatli istiqbolda O'zbekistonda o'zgarishlar dasturi sifatida ahamiyati bilan bog'liq. Turli sohalaridagi asosiy maqsadlarni tahlil qilish mamlakatni modernizatsiya qilish strategiyasining yo'nalishini, rejalashtirilgan tadbirlar va islohotlarni chuqurroq tushunishga imkon beradi.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu ishda quyidagi ilmiy tadqiqot usullari qo'llanilgan:

- Kontent tahlili-2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi matnidan O'zR rivojlanishining asosiy maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash.
- Qiyosiy tahlil-yangi rivojlanish strategiyasining maqsad va vazifalarini 2017-2021-yillardagi oldingi harakatlar strategiyasi bilan taqqoslash.
- Statistik tahlil-so'nggi yillarda O'zR rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.
- Ekspert baholari-ishda o'zbekistonlik va xorijlik yetakchi ekspertlarning yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish istiqbollari haqidagi fikrlaridan foydalanilgan.

Xorijiy tadqiqotchilarning bir qator ishlari davlat rivojlanish strategiyalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Shunday qilib, ish [2] BRICS mamlakatlarining milliy rivojlanish strategiyalarini tahlil qilish yondashuvlarini ko'rib chiqadi. Rossiyalik olimlar orasida strategik masalalar bilan A. G. Granberg, V. A. Bondarenko [4] va boshqalar shug'ullangan.

Yangi O'zbekiston strategiyasini tahlil qilishga kelsak, bu yerda o'zbekistonlik iqtisodchi A. Ubaydullayevning tadqiqot ishini ta'kidlash mumkin [5], unda muallif yangi strategiyaning ustuvor yo'nalishlariga ekspert sifatida baho beradi.



NATIJARLAR

Mazkur tadqiqot doirasida yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi matnining kontent-tahlili mamlakatning kelajakdagi rivojlanishining 7 ta asosiy yo'nalishini aniqlashga imkon berdi:

1. Insonparvar davlatni qurish va fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish. Buning uchun davlat va jamoat boshqaruvi tizimini isloh qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Jumladan, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla) vakolatlarini kengaytirish, ularning moliyaviy mustaqilligini oshirish ko'zda tutilgan.

2. Adolat, qonun ustuvorligi tamoyillarini tasdiqlash va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash. Bunga sud tizimi va huquqni muhofaza qilish organlarini isloh qilish, xususiy mulkni himoya qilishni kuchaytirish kiradi.

3. Iqtisodiy o'sishning barqaror yuqori sur'atlarini ta'minlash, milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasi va raqobatbardoshligini oshirish. 2026-yilga kelib, tarkibiy islohotlar va investitsiyalarni faollashtirish orqali aholi jon boshiga YaIMni 2021-yilga nisbatan 60 foizga oshirish rejalashtirilgan.

4. Real daromadlarning o'sishini va aholining hayot sifatini yaxshilashni ta'minlaydigan adolatli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish. O'qituvchilar va shifokorlarning ish haqini oshirish, maqsadli ijtimoiy yordam tizimini kengaytirish ustuvor vazifalar qatoriga kiradi.

5. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida jamiyatning ma'naviy va madaniy rivojlanishi. Mamlakatning tarixiy-madaniy merosini ommalashtirish, milliy madaniyat va san'atni qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

6. Milliy xavfsizlik va mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, mamlakatning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda pragmatik tashqi siyosat olib borish.

7. Inson salohiyatini rivojlantirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Shunday qilib, o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, strategiya ko'rib chiqilayotgan davrda O'zbekistonni rivojlantirishning keng yo'nalishlarini qamrab oladi. Shu bilan birga, davlat boshqaruvining zamonaviy modelini yaratish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va aholi farovonligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.



ТАHLIL

Yangi O'zbekistonning yangi besh yillik rivojlanish strategiyasi qoidalarini 2017-2021-yillardagi oldingi strategiya bilan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, davlat siyosatining umumiy yo'nalishi ko'p jihatdan izchil bo'lsa-da, ustuvorliklarda sezilarli farqlar mavjud [6].

Xususan, oldingi strategiyada asosiy e'tibor iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi tub tarkibiy islohotlarga qaratildi. Asosiy maqsadlar valyutani tartibga solishni liberallashtirish, davlatning iqtisodiyotdagi rolini pasaytirish, mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish edi.

2026-yilgacha strategiyada aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy kafolatlar va dasturlarni kengaytirish masalalariga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Bu davlatning radikal o'zgarishlar bosqichidan evolyutsion rivojlanish bosqichiga o'tishining umumiy tendensiyasini aks ettiradi, bu o'tgan yillardagi natijalarga asoslanadi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, yangi strategiya O'zbekiston iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini modernizatsiya qilishning samarali vositasi bo'lishi mumkin. Uning asosiy maqsadlari (2026-yilga kelib yalpi ichki mahsulotning 60 foizga o'sishi, ishsizlikning 5 foizgacha pasayishi va boshqalar) rejalashtirilgan tadbirlarni izchil amalga oshirish sharti bilan erishish mumkin.

Shu bilan birga, ma'lum xavflar mavjud. Bularga makroiqtisodiy beqarorlik, geosiyosiy muammolar, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida yuqori malakali kadrlar yetishmasligi kiradi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi jamiyat va mamlakat iqtisodiyotining asosiy sohasini isloh qilishning muvozanatli dasturidir.

Hujjatda davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qilish tizimidan tortib uy – joy kommunal xo'jaligi, transport va madaniyatgacha bo'lgan keng ko'lamli yo'nalishlarni qamrab olgan chora-tadbirlarning batafsil ro'yxati keltirilgan. Asosiy e'tibor aholi farovonligini oshirish, iqtisodiyotni rivojlantirish, qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarini tasdiqlash kabi strategik maqsadlarga qaratilgan.

Shu bilan birga, strategiyada ko'rsatilgan ba'zi choralar (masalan, inflyatsiyani pasaytirish yoki ish haqini oshirish) juda ambitsiyali. Ularning amaliy amalga oshirilishi ko'p jihatdan ichki makroiqtisodiy tendensiyalarga ham, tashqi omillarga ham bog'liq bo'ladi – energiya narxlari, valyuta kurslari, geosiyosiy vaziyat.



Belgilangan barcha maqsad va vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat boshqaruvining turli tarmoqlari va darajalari o'rtasidagi harakatlarni samarali muvofiqlashtirish, ijroni aniq nazorat qilish, mumkin bo'lgan ichki va tashqi zarbalarga moslashuvchan javob berish talab etiladi. Ko'rib chiqilayotgan besh yillik davr uchun yangi O'zbekistonning butun strategiyasining muvaffaqiyati buni qay darajada amalga oshirishga bog'liq bo'ladi.

XULOSA

Ushbu maqolada yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi – mamlakatni o'rta muddatli istiqbolda isloh qilishning asosiy maqsadlari, vazifalari va yo'nalishlarini belgilovchi asosiy dasturiy hujjat tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, strategiya O'zbekiston jamiyati va iqtisodiyotining asosiy sohalarini qamrab oladi. U avvalgi besh yillik harakatlar strategiyasidan ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga katta e'tibor qaratganligi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga, strategiyada rejalashtirilgan barcha maqsad va vazifalarni amalga oshirishning muvaffaqiyati bir qator tashqi va ichki omillarga bog'liq bo'ladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"
2. Кондратов Д.И. Национальные стратегии стран БРИКС: анализ и перспективы реализации. М.: МГИМО, 2018. 174 с.
3. Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. М.: ГУ ВШЭ, 2000. 495 с.
4. Пахомов А. Анализ Стратегии развития Нового Узбекистана // Экономическое обозрение. 2022. No3. С. 5-12.
5. Убайдуллаев А. Реформы в Узбекистане: итоги, проблемы, перспективы. Ташкент: Shark, 2021. 272 с.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi, 15.08.2017 yildagi F-5024-son "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida".



FITRAT IJODIDA PORLOQ KELAJAK G'OYALARI

Maqsudova Nilufar Rayimjonovna

Farg'ona Politexnika Istituti akademik litseyi

Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Ashurova Dilorom Tolibovna

Farg'ona Politexnika Istituti akademik litseyi

Rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Osimova Rayxona Adhamjon qizi

Farg'ona Politexnika Istituti akademik litseyi

Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada buyuk o'zbek mutaffakiri Addurauf Fitratning asarlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Fitrat, bosmaxona, "Rahbari najot", ilmi aqliya, "Qutqaruv yo'li".

KIRISH

Fitrat ham mamlakatdagi qashshoqlik, tengsizlik, ilm-fan, texnika sohasidagi qoloqlikdan qutulish yo'lini topish uchun Qur'on va hadislarga rioya qilish lozim deb hisoblaydi. Bu qarashlari uning 1913-yili fors-tojik tilida yozilib, 1915-yili Munzim Buxoriy noshirligida Petrograd shahridagi M.N. Maxsugov bosmaxonasida nashr etilgan falsafiy, axloqiy-didaktik asari "Rahbari najot"da o'z ifodasini topadi. Bu davrda Turkiston va Buxorodagi mutaassib ruhoniylar dunyoviy bilimlarni "kufrik" deb atab, madrasalarning dars jadvallaridan olib tashlaydilar. Fitrat o'z asarida Qur'on oyatlari va hadislardan misollar keltirib, ularning bu ishlari noto'g'ri ekanligini isbotlab beradi. U islom dini hech qachon ilm o'rganishga, dunyoviy fanlarga qarshi bo'lmaganligini, aksincha, ilmga da'vat etganligini ko'rsatadi. Yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, ularning aqliy va ma'naviy kamoloti uchun diniy va dunyoviy ilmlarni birdek zarur deb biladi. Jadidlar kabi yangi usul maktablari o'quv rejasiga dunyoviy ilmlar bilan birga diniy ilmlarni ham qo'shishni lozim topdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Fitrat "Rahbari najot"da o'rta asr Sharq mutafakkirlari ijodiga xos an'anani davom ettirib, fanlar tasnifini beradi. Bu narsa unga zamondosh boshqalar ijodida uchramaydi. Fitrat tomonidan fanlar tasnifini berilish sabablarini Sh.G'oyipova



shunday izohlaydi: “Birinchidan, o’sha paytlarda dogma (qotib qolgan) holida qolib ketayotgan diniy ilmlarni nazariy rivojlantirishga e’tiborni qaratish, ikkinchidan madrasalarda dars jadvallaridan olib tashlangan dunyoviy fanlar haqida atroflicha ma’lumot berish, ularni targ’ib va tashviq qilish”. Adib “Rahbari najot”, “Mavludi sharif yoxud mur’oti xayrul bashar” (1914 y), “Oila” (“Vazifai xonadori”) (1916 y) kabi ta’limiy-axloqiy asarlarida o’zining islohotchilik qarashlarini talabalarga singdirishga uringan.

Fitrat “Rahbari najot” (“Qutqaruv yo’li” yoki “Najot yo’li”) asarida fanlarni tasniflab, butun ilmlarni ikkiga:

ilmi naqliya va ilmi aqliyaga bo’ladi. Ilmi naqliya

- “naql” so’zidan olingan bo’lib, bu avlodlarga rivoyat qilish, yozib qoldirish orqali yetkaziladigan bilimlar ma’nosini beradi.

Ilmi naqliyani yana ilmi diniya va ilmi dunyoviyga bo’ladi.

Ilmi diniya ham bir necha qismlarga bo’linadi;

ilmi tafsir (Qur’on va hadislar ma’nosini kengaytirib beradigan ilm);

ilmi fiqh va usuli fiqh (islom shariatida qonunshunoslik ilmi);

-ilmi kalom (xudoshunoslik,

e’tiqod ilmi, teologiya);

ilmi hadis (Muhammad (s.a.v)ning xabar yo rivoyatlari va imomlarning naqli haqidagi ilm) kabilar.

Ilmi dunyoviyga esa: ilmi lisoniya (til to’g’risidagi ilm); ilmi tarix; jo’g’rofiya; ilmi tabobat; ilmi riyoziyot (arifmetika, handasa (geometriya)); nujum (astronomiya); musiqa; manozir va maroe (optika); algebra, muqobala; -Jarri askol (mexanika) fanlari kiritiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fitrat aqliy ilmlarni insoniyatning kashfiyotlari natijasi va bu ilm xususiy bo’lmasdan umumiydir deb hisoblaydi. Uning fikricha, bu ilmlarni ilmi nasora (xristian) yoki ilmi islomiyaga bo’lish mumkin emas. Bu fanlar butun insoniyatga tegishli bo’lib, Fitrat ularni umumiy qilib hikmat deb ataydi. Hikmat yoki ilmi aqliya 3 ta katta qismga bo’linadi:

1. Ilmi tabiyot.

2. Ilmi riyoziyot.

3. Ilmi falsafa.

Olim ilmi tabiyotni:

1. Ilmi tabobat.



2. Hikmati tabiiy. 3. Ilmi nabotat (botanika). 4. Ilmi hayvonot (zoologiya). 5. Ilmi ma'dan (mineralogiya) kabi qismlarga bo'ladi. Ilmi riyoziyotga esa 1. Hisob. 2. Jabr (algebra). 3. Handasa (geometriya). 4. Ilmi hayat (astronomiya, kosmografiya) kabi fanlarni kiritadi. Adibning fikricha, ilmi falsafa quyidagi fanlarga bo'linadi: 1. Ahvoli ryh, (psixologiya). 2. Ilmi axloq (etika). 3. Ilmi ilohi (teologiya). 4. Ilmi mantik (logika). 5. Hikmat. Fitrat o'zi tasniflagan bu ilmlarni ba'zilarini yana bir necha qismlarga bo'ladi. Masalan, tarix ilmini: muqaddas tarix va jamiyat tarixiga ajratadi. Jamiyat tarixi yana uch qismga a) ilm va adabiyot tarixi; b) tarixi tabiiy; v) tarixi siyosiyga bo'linadi va siyosiy tarixni ham umumiy va xususiy tarixdan iborat deb ko'rsatadi.

Axatova Durdoni ilmiy izlanishlari natijasida shuni aniqlaganki, Fitratning fanlarni tasniflash tizimi Ibn Sinoning "Ash Shifo" asarida berilgan tasniflash tizimiga yaqin. Ibn Sino bu asarida 22 ta fanni tasniflab, har biriga bag'ishlab alohida kitob yozadi. Bu fanlarning 8 tasi tibbiyotga, 9 tasi mantiqqa, 4 tasi riyoziyotga va 1 tasi ilohiyotga oid fanlardir. Ibn Sino riyoziyot fanlariga geometriya, arifmetika, astronomiya va musiqani kiritadi. Fitrat esa bunga hisob, jabr, handasa, astronomiyani kiritib, musiqani alohida go'zal san'atlarga qo'shadi. "Rahbari najot" asarida ta'lim mazmuniga oid o'z qarashlarini ishlab chiqadi. Ta'lim mazmunini ishlab chiqishda ham o'tmish mutafakkirlarimiz g'oyalariga tayanadi. Fitrat o'ziga xos ravishda fanlar tasnifini ishlab chiqadi, unta barcha diniy va dunyoviy ilmlarni kiritadi.

U siyosiy va iqtisodiy ilmlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Sanoat, qishloq xo'jalik ilmlari haqida ham ma'lumotlar beradi. Adibning "Rahbari najot" – "Qutqaruv yo'li" asari esa didaktik-axloqiy asar bo'lib hisoblanadi. Fitrat bu asari orqali xalqni nodonlikdan, mamlakat va millatni qoloqlikdan qutqaruvchi najot yo'llarini izlaydi. U bu najot yo'lini ilm va Qur'on ko'rsatib beradi degan xulosaga kelib, ularni birgalikda tadqiq, etadi. Shu tadqiqotlari natijasida adib har tomonlama yetuk inson tarbiyalash haqsidagi g'oyalarini yaratadi.

Bu asarni tahlil qilish jarayonida Fitratda komil inson haqida alohida o'ziga xos g'oyalar borligini ko'rish mumkin.

XULOSA

Fitrat hayot mazmuni haqida o'z ta'limotini ishlab chiqadi. Bunda ham din bilan ilmni qo'shishga harakat qiladi. U inson kamoloti masalasini din bilan bog'lashga intilishida o'zidan oldingi mutafakkirlarning tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqib yondashgan qarashlarini davom ettiradi. Uning fikricha, hayot mazmuni bu ikki dunyo saodatiga erishmoqdir, ikki dunyo saodati tolibi bo'lgan kishigina



komil musulmon bo‘la oladi. Fitrat faqat shu dunyoni o‘ylab, boylik ortirish, yeb-ichishni hayot maqsadi deb bilganlar; ham yoki hayot g‘oyasini narigi dunyo saodatiga erishishdan iborat deb, bu dunyo saodati uchun biror ish qilmay, bu dunyo kofirlar uchun jannat, musulmonlar uchun do‘zax deb bilganlar ham xato o‘ylaydilar, ular insoniyat vazifalarini bilmaydilar deb hisoblanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurauf Fitratning “Rahbari najot” asari. Toshkent. “Ma’naviyat”, 2006.
2. Shoirira Abdusalilovanning “Abdurauf Fitratning oila tarbiyasiga oid qarashlari”
3. Yoqub Saidov “Fitrat badiiy asarlari leksikasi” dissertatsiya, 2001.
4. Nargis Davurboyeva “Fitrat dramalarida milliy ozodlik g‘oyasining talqini” dissertatsiya, 1999.
5. Durdonaxatovanning “Abdurauf Fitratning ma’rifiy-pedagogik qarashlari” dissertatsiya, 1998.
6. Muhabbat Qurbonovanning “Fitratning tilshunoslik merosi” dissertatsiya, 1993.
7. Ilhom G‘aniyevning “Fitrat dramalari poetikasi” dissertatsiya, 1998.
8. G‘oyibova Shahnozaning “Abdurauf Fitratning ijtimoiy-falsafiy qarashlari” dissertatsiya, 1996.



ECONOMIC ANALYSIS OF TRAFFIC

Suyarov Nurali Jovli o'g'li.

Toshkent Davlat Transport Unversiteti

Alimov Ilyosjon Orif o'g'li

Toshkent Davlat Transport Universiteti

Abstract: The article is devoted to the issues of regulation of large-scale automobile transport, the possibility of using the theory of external effects to eliminate congestion in cities, and practical problems of traffic management on roads. A theoretical approach to classifying road traffic externalities and road transport externalities, showing that less than a quarter of the externalities are absorbed on roads today. Depending on the size, internalization options are different groups. An analysis of the results of the actual transport policy was carried out.

Key words: Environmental regulation of motor transport, external impact of motor transport, economic means of motor transport, urban policy

METHODS OF EVALUATING THE EXTERNAL COSTS OF AUTO TRANSPORT AND THEIR INTERNALIZATION

